

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT O‘QITISH
METODIKASI KAFEDRASI**

DO‘STMURODOV G‘IYOS HUSAN O‘G‘LI

SO‘Z IJODKORLIGI VA LEKSIKA O‘QITISH

**(Eshqobil Shukur she‘riyati misolida) mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasi**

Ilmiy rahbar: I.K.Mirzayev,
Filologiya fanlari doktori, professor

Samarqand-2020

M U N D A R I J A

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	3
------------------------------------	----------

I BOB O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI

1.1 E. Shukur hayot va ijodiga chizgilar.....	
1.2 She’riy matnlarda neologizm va okkazionalizmlarning o‘zaro munosabati. ...	
Birinchi bob yuzasidan xulosa.....	

II BOB ESHQOBIL SHUKUR SHE’RIYATIDA SO‘Z IJODKORLIGI

2.1 Eshqobil Shukurning so‘zdan foydalanish mahorati.....	
2.2 Eshqobil Shukur she’rlarida so‘z ijodkorligi.....	
Ikkinchi bob yuzasidan xulosa.....	

III BOB LEKSIKA BO‘LIMINI O‘QITISH.....

3.1. Eshqobil Shukur she’rlarining leksik tahlili.....	
3.2 Leksika o‘qitish metodikasi	
Uchinchi bob yuzasidan xulosa.....	

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Til doimiy ravishda yangi lugʻaviy birliklar hisobiga boyib boradi. Hech bir soʻz kommunikativ ehtiyojsiz tugʻilmaydi. Ammo yangi paydo boʻlgan soʻzlar tildagi mavqeiga koʻra farqlanadi. Har qanday yangi paydo boʻlgan lisoniy birliklar til tizimida oʻz oʻrniga ega boʻlishi yoki ega boʻlmasligi mumkin. Lugʻat tarkibida oʻz oʻrniga ega boʻlmasdan yakka (individual) nutqqa xos va oʻsha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy, yaʼni favqulodda yaratilgan va koʻpincha lisoniy aloqa jarayonida atigi bir martagina qoʻllanadigan soʻzlar borki, ular hamisha yangiligi, gʻayritabiiy tuyulishi, betakrorligi, adabiy normadan tashqarida boʻlishi bilan ajralib turadi. Bunday soʻzlarni xalq va til ijodkorlari yaratadi. Xalq yaratgan soʻzlar tilshunoslikda ogʻzaki nutq okkazionalizmi, maʼlum ijodkorlar tomonidan yaratilgan soʻzlar esa individual–yakka nutqqa xos, yaʼni badiiy okkazionalizmlar deb yuritiladi. Shoir yoki yozuvchilarimizning oʻz ijodida muayyan soʻzni yangi bir maʼnoda qoʻllashi ham bu tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishiga olib keladi.

Oʻzbek tilshunosligida nutq uslublari dorasida ijodkorlarning badiiy mahorati, poetik individualligi keng oʻrganilmoqda. Eshqobil Shukurning ham tildan foydalanish, soʻz qoʻllash mahorati oʻziga xos. Shoir ijodida ham yangidan yangi badiiy ifodalarni koʻrish mumkin. Bundan tashqari uning tadqiqotchi sifatida soʻzlar etimologiyasi bilan jiddiy shugʻullanayotgani ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodida yangi soʻzlar qoʻllash malakasi boshqalarnikidan farq qiladi. Yangi soʻzlar soʻzlovchi yoki ijodkorlar tomonidan oʻz fikr va maqsadini oʻziga xos tarzda va aniq ifodalash, oʻzlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan boʻlgan oʻz munosabati, yaʼni his-tuygʻularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qoʻllanadi. Yangi soʻzlar tasvir obyektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yaratiladi. Okkazionalizmlar bir marta qoʻllanishi va oʻta taʼsirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan

til birliklaridan farqlanib turadi. Okkazional soʻzlarning oʻziga xos vazifalari, xususiyatlari mavjudki, ular oʻzbek tilshunosligida hali yetarli ravishda tadqiq qilingan emas. Toʻgʻri, okkazional soʻzlar haqida oʻzbek tilshunosligida anchagina fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, S.Toshaliyevaning oʻzbek tilida okkazional soʻzlarning yasalishiga oid izlanishlari diqqatga molikdir. Lekin lugʻaviy okkazionalizm maxsus tadqiqot obyekti qilib olinmagan va har tomonlama: fonetik, lugʻaviy, morfologik jihatdan, shuningdek, ogʻzaki yoki yozma nutq koʻrinishlaridagi holati boʻyicha oʻrganilmagan. Ayniqsa, Eshqobil Shukur sheʼrlarida lugʻaviy okkazionalizmlarning oʻziga xos xususiyatlari, okkazional soʻzning tugʻilish sabablari, unga boʻlgan ehtiyoj, okkazionalizmlarning unga yondosh boʻlgan hodisalar – neologizm, sinonimiya, normal va nonormal leksik birliklardan farqi, okkazional soʻzlarning tilda ado etuvchi uslubiy, badiiy-estetik vazifalari, bu tip soʻzlarning til lugʻat sistemasiga munosabati kabi muammolar oʻz tadqiqini kutmoqda. Shu maʼnoda mazkur dissertatsiya mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Til lugʻaviy tarkibining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini oʻrganish oʻz tarixiga ega. Bu masalaga bagʻishlangan ishlarda okkazional soʻzlarga eʼtibor berib kelinadi. Badiiy asarlarning lisoniy xususiyatlari jahon va oʻzbek tilshunosligida keng oʻrganilgan til sathlari lingvostilistik¹, lingvopoetik² nuqtayi nazardan atroflicha tadqiqi

¹Шоабдурахмонов Ш. «Равшан» достонининг тили ва стили: филол.фан.докт. ...дисс. –Т., 1949. Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: автореф. дисс....канд.филол.наук. –Т.,1969. Шомақсудов А. Муқимий сатираларининг тили. –Т., 1970. Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 1975. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: автореф. дисс....канд.филол.наук. –Т.,1979. Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: автореф. дисс....канд.филол.наук. –Т.,1982. Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби(лексика ва фразеология):филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд, 2001. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд, 2004. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 2006. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 2000 ва б. Қўчқорова М. Абдулла Қаҳҳор адабий-танқидий публицистикасининг мавзувий таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, - № 2. 52-55.

²Мирзаев И.К. Проблем лингвопоэтической и интерперетации стихотворного текста: автореф. дисс....докт.филол.наук. –Т.,1991. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. - № 4. Мўҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90- йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: филол.фан.номз. ...дисс.

qilingan. Xanpiraning V.V.Mayakovskiy ijodiga xos okkazionalizmlarni o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiyasi birinchi monografik ish edi. O'zbek tilshunosligida bu mavzuga shoir yoki yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bag'ishlangan ishlarda, shuningdek adabiy til me'yorlari bo'yicha yaratilgan asarlarda, so'z yasalihi haqidagi maqola va tadqiqotlarda ayrim fikrlar ilgari surilgan. Q.Samadov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Choriyev, B.Yoriyev M.Mirtojiyev, L.Abdullayeva kabilar o'z tadqiqotlarida ma'lum bir ijodkorning so'z qo'llash mahorati masalasida okkazionalizmlarning o'rni va rolini qayd etib o'tgan bo'lsalar-da, lekin yangi so'z ijodkorligi ularning leksik va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan monografik ish o'zbek tilshunosligida hali o'rganilmagan. B.Umurqulov okkazional so'zlarni ijodkorning o'ziga xos uslubini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin etadi. Okkazional so'zlar va ularning adabiy normaga munosabati A.Mamatov tomonidan chuqur o'rganildi. Olim asosiy e'tiborni lingvistik me'yor muammosini hal etishga qaratarkan, "nonormal", "noqonuniy" bo'lgan okkazional so'zlar va iboralarga xos belgilarni misollar asosida tahlil qilib beradi. Tadqiqotchi S.Mo'minov neologizm va okkazionalizmlarning xususiyatlarini qiyoslab, o'ziga xos bo'lgan farqli tomonlar haqida o'z qarashlarini bayon qiladi. O'zbek tilida okkazional so'zlarni izchil ilmiy asoslarda o'rganish XX asrning 90-yillari oxiriga to'g'ri keladi. S.Toshaliyeva "O'zbek tilida okkazional so'z yasalihi" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Bu ushbu muammoga oid birinchi monografik ish edi. Tadqiqotchi okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham to'xtaladi. U okkazional so'zlarni to'rt tipga ajratadi: leksik okkazionalizmlar, semantik okkazionalizmlar, okkazional yasalmalar va okkazional ibora. Tadqiqot, asosan, okkazional so'zlarning yasalihiha bag'ishlangan bo'lib, unda okkazional so'z yasalihi usullari atroflicha yoritilgan.

Tadqiqotimizning boshqa ishlardan farqli tomoni shundaki, unda asosan, Eshqobil Shukr she'riyati, uning hayot yo'li, so'z qo'llash mahorati, so'z ijodkorligi shuningdek she'rlarining leksikasi asosida o'qitish metodikasi haqida ham ayrim tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Ishning tadqiq obyektni Eshqobil Shukur she'riyatida uchraydigan yangi so'zlar tashkil qiladi. Nazariy manbaa sifatida hozirgi davr tilshunosligidagi dissertatsiya mavzuiga daxldor dissertatsiya, monografiya, risola va ilmiy maqolalar xizmat qildi.

Tadqiqot usullari. Ishning metodologik asosini til va tafakkur birligi, obyektiv borliq va lisoniy belgi munosabati, til evolyutsion rivoji kabi lisoniy-falsafiy qoidalar tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuning ba'zi muammoli tomonlarini tahlil qilishda ushbu muammo bo'yicha tilshunoslikda mavjud nazariy qarashlarga tayanib ish tutildi.

Ishda tasvirlash, tavsiflash, sistem tahlil, qiyoslash, tasniflash kabi metod va usullardan foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Eshqobil Shukr she'riyatida yangi so'z ijodkorligi bo'yicha material to'plandi va lisoniy tadqiq qilindi;
- yangi so'zning mohiyati, uning lug'aviy va grammatik belgilari tahlil qilindi;
- yangi so'zning asosiy xususiyatlari: nutqqa bog'liqlik, ijodiylik, norma bilan munosabat, betakrorlik, ta'sirchanlik, majburiy bo'lmagan nominatsiya va boshqalar tahlil qilindi;
- yangi so'zlar sinonimiyasi, okkazonal so'zlarning til lug'at tizimiga kirish yoki kirmasligi ochib berildi;
- Eshqobil Shukur she'riyati misolida leksika o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotda yangi so'zlarning badiiy-estetik vazifasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan.

Ish natijasida umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosalar soʻz muammosini til va nutq aspektida oʻrganishda, ayni paytda, soʻzning badiiy-estetik xususiyatlarini ochishda muayyan qimmatga ega. Ishdagi ilmiy tahlil turkiy tillar, xususan, oʻzbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, uslubshunosligi, nutq madaniyati boʻyicha yaratiladigan qoʻllanmalar qoʻshimcha material boʻlib xizmat qila oladi. Shuningdek, badiiy matnni lingvistik tahlil qilishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, kompyuter yozuvida 80 sahifani tashkil etadi.

I.BOB O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI

1.1. Eshqobil Shukr hayotiga chizgilar. Eshqobil Shukur 1962-yil Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanidagi Boymoqli qishlog‘ida tug‘ilgan. ToshDUning filologiya fakultetini bitirgan(1984). Uzoq yillar O‘zbekiston televideniyesi kanallarida ishlagan. Bugungi kunda “Ma’naviy hayot” jurnali bosh muharriridir. Ilk she‘rlar to‘plami—«Yurakni o‘rganish» (1984). Shundan so‘ng uning «Sochlari sumbul-sumbul» (1988), «Tungi gullar» (1989), «Yashil qushlar» (1995), «Hamal ayvoni» (2003) she‘riy kitoblari va 2005-yilda «Ko‘hna bog‘ rivoyatlari» nasriy kitobi nashr etilgan. «Naqshband», «Ibtido xatosi» kabi dostonlari, «Nasoyim ul-muhabbatga sayr» turkumi, shuningdek, «Oqibat oqshomi», «Dunyoning ko‘chishi» kabi qissalari ham bor. Eshqobilning porloq ijodiy ertasiga komil ishonchim bor.

Ijodkorning shakllanishida xalq merosining ahamiyati qay darajada? Umuman olganda, Eshqobil Shukurning shakllanishida qaysi jihatlar muhim o‘rin tutadi? Shu o‘rinda diqqatingizni hamma ishlatadigan, lekin hamma ham e’tibor qilavermaydigan, kichkinagina bir obrazga qaratish lozim. Ona yerimizning tabiiy yo‘ldoshini qadim-qadimdan “Oy” deb atashgan. Lekin qaysi bir zamonlarda oyni kimdir birinchi bo‘lib “oymomo” deb aytgan. Hamma gap shunda! Qanday yaxshi obraz bu! Shu obraz sabab odamlar oyni tirik bir timsolda ko‘radigan bo‘lganlar va asrlar mobaynida unga sirlarini aytib kelganlar. Hatto tili chiqayotgan go‘daklar ko‘p so‘zlardan oldin “oymomo”ni aytib o‘rganadilar. Bu obrazning necha ming yillik yo‘lni yurib kelayotganini tasavvur qilib ko‘ring. Qarangki, shunda ham u qarib qolmagan. Xalqimizning og‘zaki ijodiyotida bunday ramzlar va timsollar oz deysizmi? Ular juda ko‘p. O‘sib kelayotgan bolaning tafakkuri shunday obrazlarni o‘ziga singdirsas, albatta, u olamga ijodiy ko‘z bilan qaraydi. Dostonlarimizga bir qarang. Jahonda barmoq bilan sanarli xalqlarninggina “Alpomish”day dostoni

bo‘lishi mumkin. Yoxud baxshilarimiz yonib kuylagan “Go‘ro‘g‘li” dostonini oling. Bu dostonning shakli, syujeti, ramz va timsollari, badiiy qudrati hozirgi zamon jahon adabiyotining eng ilg‘or asarlariga manbaa bo‘la oladi.

Nobel mukofoti laureati Migel Anxel Asturiasning bir gapi bor: “Nazarimda eng yaxshi romanlar yozilgan emas, aytilgan”. Bu o‘rinda adib, Amerika kechmishida afsonalar va rivoyatlarni qo‘shiq va doston shaklida aytib yurgan bizdagi baxshilarga o‘xshash odamlarni nazarda tutgan. Modomiki, mutolaa asosan o‘qish emas, uqish, unda men mutolaa qilganim – ilk badiiy asarlarni o‘qigan emas, balki tinglaganman. Qishning sovuq va uzun kechalarida sandal atrofida o‘tirib tinglagan ertaklarimiz va afsonalarimiz hanuz yuragimda sado beradi. Hazrati Rumiyl iborasi bilan aytganda, men bu asarlarni “yodlagan emasman, balki yeganman”.

Hozirgacha odamzot omochdan kosmik kemagacha bo‘lgan masofani bosib o‘tdi. Baribir, bugungi kosmik kemalarning kashf etilishida, uchar gilamlar-u, Delal va Ikarining ham o‘z o‘rni bor. Shuning uchun ham ertak va afsonalarga o‘tmish xayollari deb qaramaslik kerak. Modomiki, ular faqat o‘tmishning o‘zi bo‘lib qolganida yoki shunchaki cho‘pchak bo‘lganida bugungi bolalarga ertak aytib berib o‘tirishga, hatto onalarning alla aytib o‘tirishlariga hojat qolmasdi. Bular odam qalbi bilan bog‘liq hodisalar.

Shoir bolaligidan momolar-u bobolarning gurunglarini yaxshi ko‘rgan. Ehtimol, doimo bobosiga ergashib yurgani uchun shunday bo‘lgandir. Hozir ham qishloqqa borganida, ko‘proq keksalar bilan gurunglashadi. Yaqinda, yurtga borganida ham Qizlarsho momo, Jamol momo, O‘ngol momo, Shayman bobolar bilan ko‘p gurunglashdi. Ularning eng yoshi saksondan oshgan. Ular menga yoshlik yillarida ko‘rgan-bilganlarini, eshitganlarini aytib beradilar. Ularning tilida so‘z boshqacha harakat qiladi.

Masalan, O'ngol momo hikoyasini bunday boshlaydi: "Kunsuluv eridan qoraxat olganda, "Sen yerning ostida chirisang, men yerning ustida chiriymen!" deb qasam ko'tardi". Yoki Jamol momo g'amgin bir qo'shiqni aytib beradi:

Chiqib edim shamolga,

Kirib edim amalga,

Qaytarib soldi qamalga.

Holim ko'p, holdoshim yo'q,

Dardim ko'p, darddoshim yo'q.

Bir kuni onasi o'zi yozgan bir hikoyatni o'qib bera boshladi: "Abdimurod yolg'iz yigit edi..." Onasi uni birinchi jumladayoq, to'xtatdi. Chunki, uning hikoyatga asos bo'lgan voqeadan xabari bor edi. Keyin ona uning birinchi jumlasini shunday tahrir qildi: "Yolg'iz yigit edi" deb yozma, "Uning o'zidan boshqa qorasi yo'q edi" deb yoz". Ko'ryapsizmi, bu jumlada qancha badiiy rang bor, obraz bor va tirik tilning taftli nafasi bor.

Bola bilan samimiy suhbat kattalarning ham tabiatini tozalashga yordam beradi. Kichkina o'g'lim besh yoshida rasm chizishga qiziqib qoldi. U qanday surat chizmasin, albatta, unda quyosh bo'lardi va har bir quyosh kulib turardi. Biron-bir suratda quyoshning xo'mraygani yoki jiddiy turgan holati yo'q edi. Men undan so'radim: "Nima uchun hamma chizgan rasmlarida quyosh kulib turadi?" U: "Quyosh o'zi har doim kulib turadi-da", – deb kulib javob berdi. Men uning kulgisida chizgan rasmlaridagi quyoshning kulgusini ko'rganday bo'ldim. Ehtimol, rostdan shundaydir. Biz kattalar quyoshning kulib turganini ko'rmayotgandirmiz. Bola uchun esa quyosh kulyapti. Bu uning haqiqati. Yo'qsa, u rasmni bunday chizmas edi.

Ayrim ijodkorlar butun ijodi davomida faqat bir yo'nalishda ijod qilib o'tadi. Ba'zi iste'dod egalari esa, ma'lum bir yoshga vaqti-voyaga yetganlarida boshqa janrlarga ham murojaat qiladilar. Keyingi holatni sizda ham kuzatish mumkin. Yashashni bir ne'mat desak she'riyat uning tuzidir. Yosh bolalarni qarang,

ularning hammasi poeziya bilan yashaydi. Hayratlanadi. Agar hayotning poeziyasi bo'lmasa hatto beshikdagi bola ham olti oyda qarib qolgan bo'lardi. Odam qalbini hayrat va muhabbat ulg'aytiradi. Shuning uchun har qanday nasriy asarning ham zahirida nazm yotadi. Nazmsiz nasr o'lik bir narsa. Hamma yaxshi nasriy asarlarga qarang, ularning har biri bitta she'r tasvirlashi mumkin bo'lgan tuyg'uni ifodalaydi. Shuning uchun Shukur aka Tagorning "Roman to'rt satr she'r bo'lishi kerak" degan gapini ko'p takrorlardir. Shoir oq qog'ozning ikki chetidan xoshiya qoldirib yozsa, nosir qog'ozni to'ldirib yozadi. Ularning farqi boru yo'g'i shunda. Sizni qadim turkiy tilning katta muxlisi, tadqiqotchisi sifatida ham bilamiz. So'z, so'zlarning o'zagi va turli tillardagi shakllarga bag'ishlangan tadqiqotlaringiz, qadimiy turkiy yozuvlarga bag'ishlangan maqolalaringiz ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otgan. Haqiqiy she'rning dunyoga kelishida yana qaysi omillarning o'rni beqiyos?

Eshqobil Shukurni qadimiy turkiy tilning tadqiqotchisi deb aytish ham mumkin. Shoir bu haqda shunday deydi: "Men o'zimni bu tilning bir o'g'li sifatida ko'raman. Undan qarzdorligimni ich-ichimdan his etaman. Bu shunchaki gap emas. Avvalgi chiqishlarimdan birida ham aytgandim: "Ona tili" degandan ko'ra, "Ona Til" deyish ma'qulroq, go'yo Ona-Vatan, ona yurt deganday. Bu bizni yanada burchliroq bo'lishga undaydi. Chamasi bundan yigirma yillar avval "So'zni ko'ryapman" degan maqola yozganman. Bu maqola ushbu gazetada bosilgan. Ochig'i, men so'zni his qilishni, uning mohiyatini ilg'ashni istayman. So'zlarning paydo bo'lishi, ildizlari haqidagi urinishlarim esa, bir shoirning o'z tilini chin ma'noda anglashi uchun harakatlaridir. Men bu jarayonda olimlik da'vo qilolmayman. Men so'z tahliliga boshqacha rakursda, she'r yozayotganday yondashishni istayman. Ishoning, o'zbek tilidagi biron-bir so'zning menga noma'lum bo'lgan biron-bir jihatini topib olsam, o'zimning o'zimga noma'lum bo'lgan sirimni kashf etganday bir holga tushaman. "Chayla" bilan "yaylov"ning bitta so'z ekanligini topib olganimda, yo'qotgan o'yinchog'ini topib olgan bolakayday bir necha kun yayrab yurganman. Bir qancha so'zlar ustida ishlagan ish daftarimning birinchi betiga: "Mehr va muhabbat bilan, azizim, mehribonim,

suyuklim Ona Tilimga bag‘ishlayman” deb yozib qo‘yibman. Aytmoqchimanki, yaxshimi yomonmi, xatolimi xatosizmi bu ishlarim o‘z tilimga mehrimning mevalaridir. Men turkiy tillarga oid lug‘atlarni eng qiziq qissalardan ham qiziqibroq o‘qiyman. Chunki har bir so‘z menga bir sirni shivirlayotganday bo‘ladi. Ayniqsa, Qoshg‘ariy “Devon”ida...

She‘riyatda, umuman adabiyotda, mezon deb hisoblaydigan, o‘zingiz amal qiladigan tabarruk tamoyil nimadan iborat? Shunday mezon bormikan asli? Tuproqning eng katta hikmati shundaki, unda har qanday urug‘ unadi, o‘sadi, kamol topadi. Adabiyot ham shunga o‘xshaydi. Unda ham eng go‘zal fikrlar va tuyg‘ularning unib o‘rishini ko‘rasiz. O‘tgan asrdagi materialistlarning eng katta xatosi ular insondan hayvonni izladilar. Bu bor gap. Haqiqiy adabiyot esa, maxluqdan malakni izlaydi. Hatto ichi zulmat odamning tiynatidan ham nur topadi yoxud unga nur olib kiradi. Rumi, Navoiy, Goye, Tolstoy... Bu zotlarning hammasi shu maqsadda adabiyot yaratganlar. Insonni insonday ko‘rishni istaganlar.

Umumlashuv va globallasuv davri qalbni qotirib tashlaydi, bunday paytda, albatta, adabiyot oldinga chiqishi kerak.

Shunday qadriyatlarimiz borki, ular bilan yuzma-yuz kelganingda, yuraging zirqirab ketadi. Millatimizning shunday yorqin xususiyatlari borki, ularni bugungi globalizatsiya to‘fonlaridan asrab qolish va millat bolalari ruhiga singdirish adabiyotimizning bugungi kunining vazifasidir. Bizda milliy tarbiyaning zamini juda pishiq. Bu xalqning katta dostonlaridan tortib, eng kichik matal va topishmoqlarigacha qalb tarbiyasi, fikr tarbiyasi, kerak bo‘lsa, jism tarbiyasigacha o‘zida aks ettirgan. Shularni qayta ijodiy ishlashimiz kerak. Bunday asos va manbani hamma xalqlarda ham bu darajada mukammal deb bo‘lmaydi.

Dunyoda til va adabiyotidagi umumlashuv, globallasuv ko‘p qaltis jarayon. Shuning uchun yosh ijodkorlarimiz ehtiyot bo‘lishlari kerak. Navoiylar,

Qodiriylar yaratgan bog‘ga bilib-bilmay har xil chirmovuqlar-u, zaharli zamburug‘larni olib kirmasinlar. “Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p”

Shoirning so‘zga, tilga munosabati haqida zamondoshlari, uni tanigan ijodkorlarning fikri ham muhim ahamiyatga ega.

Iqtidorli shoirimiz Eshqobil Shukur she‘riyatini ko‘p yillardan buyon o‘qib, kuzatib kelaman. Har qanday yasamalikdan, har qanday fikrbozlikdan, har qanday soxta ohanglardan xoli bo‘lgan bu she‘riyatda dilkashlikni, samimiyatni, mehrni, kuyinchaklikni, teranlikni, go‘zallikni uchratasiz.

Abdulla Oripov,
O‘zbekiston xalq shoiri (2013 yil)

Eshqobil Shukur o‘zbek she‘riyatida o‘z o‘rniga, boshqa hech bir shoir bilan adashtirib yubormaydigan ovozga ega shoir. U fikr va hayajon shoiri. U tajribalar qilishni yaxshi ko‘radi. U qog‘oz to‘ldirish uchun emas, yuraklarni to‘ldirish uchun yozadi.

Xurshid Davron,
O‘zbekiston xalq shoiri (2013 yil)

She‘r so‘zi bo‘lmaydi. Demoqchimanki, so‘zlar orasida she‘rga mo‘ljallangan alohida so‘zlar bo‘lmaydi. Lekin chin shoirning qo‘liga tushsa, hamma so‘z she‘r bo‘ladi. Eshqobil juda xalqchil shoir. U boshqalarga o‘xshamaydi. Men qidirib ko‘rdim, kimga o‘xshar ekan deb, yo‘q, o‘xshamaydi.

Erkin A‘zam,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi. (2003 yil)

Eshqobil Shukurning “Hamal ayvoni” kitobini varaqlab, bir xulosaga keldimki, Eshqobil taqlid qilmagan shoir. Uning “Nasoyim ul muhabbatga sayr” turkumi xalqimiz uchun yuksak ma’rifiy ruhdagi asarlardan deb hisoblayman.

Mirzo Kenjabek, shoir

Eshqobil Shukur o'zbek tilidagi so'zlarni qo'llabgina qolmay ularning kelib chiqishi-yu qanday yangi ma'no ifodalashi, qaysi ma'nolar bilan borib bog'lanishi bilan ham qiziqadigan erkin tadqiqotchidir. Endi shoirning so'z ijodkorligini teranroq anglash uchun neologizmlar va okkozializmlar haqida muxtasar tushuncha berish maqsadga muvofiqdir.

1.2. She'riy matnlarda neologizm va okkazonalizmlarning o'zaro munosabati. So'z yasalishi qanday usul bilan bo'lsa ham, yangi so'z hosil qilish mumkinligini ko'rdik. O'zbek tilida so'z yasalishining bir necha usuli mavjud:

1) semantik usul; 2) fonetik usul; 3) sintaktik-leksik usul; 4) affiksatsiya usuli; 5) kompozitsiya usuli. Semantik usul bilan so'z yasalishida tilda bor bo'lgan so'z (so'z formasi)ning ma'nosi o'zgarishi natijasida yangi so'z hosil bo'ladi: kun (sutkaning yorug' qismi) – kun (quyosh, planeta), boshda (o'rin kelishigidagi otdan yuzaga kelgan ravish), kechasi (egalik formasidagi otdan yuzaga kelgan ravish) va.b.

O'zbek tilida fonetik o'zgarish (tovush o'zg'arishi) hosil bo'lgan so'zlar ham anchagina: ko'r — ko'z, bo'r — buz kabi. Bunday yo'l bilan so'z hosil bo'lishi fonetik usul bilan so'z yasalishi deyiladi. Sintaktik-leksik usul bilan so'z yasalishi deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi. Vaqtlar o'tishi bilan ma'lum tipdagi so'z birikmalari bir so'zga aylanishi mumkin. Bunda so'z birikmasi bir ma'no – leksik ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi, birikma komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa yo'qoladi. Natijada aslida so'z birikmasi bo'lgan birlik qo'shma so'zga aylanadi. Masalan, tokqaychi, qashqargul, mingboshi, jo'xoripoya, yengiltabiat, kaltafahm kabi qo'shma so'zlar xuddi shunday yo'l bilan hosil bo'lgan.

So'zga affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usuli bilan so'z yasalishi deyiladi: ishchi, betonchi, sportchi, paxtakor, ochits, yopiq, ishla, egovla, o'yla kabi. O'zbek tilida affiks qo'shib so'z yasashdan tashqari, birdan ortiq o'zakni (mustaqil ma'noli morfemani) qo'shish orqali ham yangi so'z

yasaladi. Soʻz yasashning bu usuli kompozitsiya usuli deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan qoʻshma soʻzlar yasaladi: tuyaqush, oybolta, atirgul, havo rang, sotib olmoq, olib kelmoq, hech qachon, har vaqt kabi.

Demak, qoʻshma soʻzlar ikki usul: sintaktik-leksik va kompozitsiya usuli bilan yuzaga keladi. Semantik, fonetik va sintaktik-leksik usullar bilan soʻz yasalishi tarixiy yasalar (diaxron yas.) hisoblanadi. Hozirgi soʻz yasalariga keyingi ikki usul — affiksatsiya va kompozitsiya usullari kiradi, shu ikki usul hozirgi soʻz yasalarining oʻrganish obʻekti boʻla oladi.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻz yasalarining eng faol usuli affiksatsiya usulidir. Soʻz yasovchi affikslar bir qator xususiyatlarga ega. Baʼzan affikslar bir xil maʼnodagi, baʼzilari esa turli maʼnodagi soʻzlar yasaydi. Masalan, -soz affiksi bir xil maʼnodan ot yasasa (asbobsoz, soatsoz kabi), -chi affiksi bir necha xil maʼnodagi otlar yasaydi (traktorch, sportchi, neftchi; jinoyatchi, tuhmatchi;). Baʼzi affikslar bir turkumga oid soʻz yasasa, ayrim affikslar har xil turkumga oid soʻz yasaydi. Qiyoslang: aravakash (ot) – pastkash (sifat); bedavo (sifat) – betinim (ravish). Soʻz yasovchi affikslar oʻzbek tilida asosan suffiks xarakterda boʻlib, boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarda oʻsha tillardan oʻtgan, oʻzak oldiga qoʻshiluvchi affikslar ham uchraydi: begʻaraz, noxush, notinch, antidemokratiya kabi. Oʻzga tildan oʻtgan maʼlum soʻzlar tarkibida qoʻllanuvchi affikslarni oʻzbek tili nuqtayi nazaridan soʻz yasovchi affiks yoki bunday affiks emasligini baholashda ikki holatni hisobga olish kerak. Agar bunday affiks oʻzga tildan oʻtgan soʻzdagina uchrab, oʻzbek tilida yangi soʻz yasash uchun xizmat qilmasa, bunday affiks soʻz yasovchi affiks hisoblanmaydi.

Affikslarning soʻz yasash darajasi bir xil emas. Baʼzi affikslar juda koʻp miqdorda, baʼzilari esa juda kam miqdorda yangi soʻz yasaydi. Shuningdek, ayrim affikslar hozirgi kunda koʻplab yangi soʻzlar yasashda faol qoʻllansa, ayrimlarning esa soʻz yasash vazifasi juda cheklangan boʻladi. Ana shu farqli xususiyatlariga koʻra soʻz yasovchi affikslar uch turga boʻlinadi: 1) unumli (yoki mahsuldor) affikslar, 2) kamunum (kammahsul) affikslar, 3) unumsiz affikslar.

Unumli qo'shimcha juda ko'p miqdorda yangi so'zlar yasaydi, shungdek, hozirgi o'zbek tilida yangi so'zlar yaratishda ham faol ishtirok etadi. Ot yasovchi -chi, sifat yasovchi -li, fe'l yasovchi -la affikslari ana shunday affikslardan hisoblanadi. Masalan, ot yasovchi -dosh (musobaqadosh, suhbatdosh, kursdosh) affiksi, sifat yasovchi -ma (qovurma, chiyratma, terma) affiksi. Unumsiz affikslar juda kam yangi so'z yaslashida qatnashadi, ular yordamida hozirgi kunda yangi so'z yaratilmaydi. Masalan, ot yasovchi -gar (savdogar, zargar), -kash (aravakash), sifat yasovchi -ag'on (chopag'on, qopag'on).

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, so'z yaslashi tahlilida yasama so'zning yasovchi komponentlari belgilanadi, ya'ni so'z qismlarga ajratiladi. Shuningdek, so'z morfologik strukturasi jihatdan ham tahlil etiladi. Bundan tashqari, so'z morfema nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladi. Lekin so'zning so'z yaslash strukturasi morfema strukturasi bilan ham, morfologik strukturasi bilan ham farqlanadi. So'zning so'z yaslash strukturasi shu so'zni yasovchi komponentlaridan iborat bo'ladi. So'z yaslash tahlilida yasama so'zning qanday yasovchi komponentlardan tashkil topgani va shu komponentlar asosida yasama so'z ma'nosining ifodalanish usuli o'rganiladi. Masalan, terim: terim – yasovchi asos, –im yasovchi affiks; terimchi: terim – yasovchi asos, -chi – yasovchi affiks. Demak, so'z yaslashi tahlilida, birinchidan, faqat so'z yasovchi vositalar o'rganiladi. Bunda (morfologik tahlil tekshiradigan) shakl yasovchi vositalar e'tibordan chetda qoladi. Ikkinchidan, bu tahlilda yasama so'z tarkibida nechta o'zak va nechta yasovchi affiks borligi o'rganilmaydi (so'z shu nuqtai nazardan tahlil etilmaydi), balki yasama so'zni yuzaga keltirgan komponentlar belgilanadi. Masalan, terimchi so'zi morfema tarkibiga ko'ra uch qismga bo'linsa (ter + im – chi), shu komponentlari nuqtayi nazaridan u (terimchi so'zi) ikkiga bo'linadi (terim + chi). Chunki terimchi so'zi ter o'zagidan yasalayotgani yo'q, balki terim va -chi yasovchi komponentlari yordamida yasalgan. Paxtakorlik so'zining ham morfema strukturasi bilan so'z yaslash strukturasi o'zaro farqlanadi. Morfema strukturasi: paxta + kor + lik, so'z yaslash strukturasi; paxtakor+lik.

Yasama soʻzning asosi (soʻz yasash asosi) soʻz yoki soʻz birikmasiga teng boʻlishi ham mumkin: belbogʻli (delbogʻ + li) temir yoʻlchi (temir yoʻl + chi), besh, yillik (besh yil + lik) kabi.

Soʻz yasashi hodisasi mustaqil soʻz turkumlariga xos boʻlib, lekin soʻz yasashning biror usuli bilan yangi soʻz hosil qilish soʻz turkumlarining barchasi uchun birdek emas. Masalan, hozirgi oʻzbek tilida eng mahsuldor usul – affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash ot, sifat, feʼl va ravish turkumlari uchun xarakterlidir. Son turkumida esa affiksatsiya usuli bilan ham, kompozitsiya usuli bilan ham miqdor bildiruvchi yangi soʻz (yangi yasalmaydi. Sonlarga qoʻshiluvchi -(i)nchi (uchinchi, beshinchi, ikkinchi), -ta (ikkita, uchta, beshta) kabi affikslar yangi miqdor bildiruvchi son hosil qilmaydi, balki son (miqdor) tushunchasi oʻzgartmagan holda, unga tartib, dona kabi maʼnolar qoʻshadi, xolos. U besh, besh yuz, besh yuz ming, besh yuz million, oʻn ming, oʻn besh ming kabilarda har bir soʻz (son) oʻz maʼnosida qatnashadi, ular birikib yangi bir soʻz (son)ni hosil qilmaydi. Olmoshlar boshqa turkumga oid soʻzlar oʻrnida qoʻllanuvchi, umumiylik xususiyatiga ega soʻzlar boʻlganidan yangi soʻz yasash hodisasi bu turkumda deyarli yoʻq darajadadir.

“Neologizm (grekcha neos – yangi + logos – soʻz, tushuncha). Yangi predmet yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan soʻz yoki nutq iborasi. Soʻz keng qoʻllanish doirasiga kirgach, neologizm boʻlmay qoladi... Sovet davrining ayrim neologizmlari eskirgan soʻzlar qatoriga oʻtdi. Stilistik (individual – stilistik) neologizm. Biror adabiy asar muallifi tomonidan maʼlum stilistik maqsad bilan yaratilgan, lekin keng tarqalish imkoniyatiga ega boʻlmagan, tilning lugʻat tarkibiga kirmagan neologizm.” Lugʻatda okkazonalizm va okkazional tushunchalariga ham alohida toʻxtalangan: “Okkazonalizm. Maʼlum matn sharoitidagina qoʻllanib, unumsiz soʻz yasash qolipi asosida yaratilgan soʻz. Qiyoslang: stilistik neologizm ”.“Okkazional (lotincha occasionalis - tasodifiy). Umum tomonidan qabul qilingan qoʻllashlarga mos kelmaydigan, individual xususiyatga ega boʻlgan, maxsus kontekstga bogʻliq boʻlmagan (qiyoslang:

uzual)”. Uzual terminiga berilgan ta’rifni ham ko’raylik. “Uzual. Ma’lum til jamoasining qo’llanish talabiga mos keladigan so’z, frazeologik ibora, grammatik konstruktsiya va h.k. (qiyoslang: okkazional)”. “Uzus (lotincha usus – urf, qoida, qo’llash). Ma’lum til vakillari tomonidan qo’llash uchun qabul qilingan so’z, turg’un birikmalar, shakllar, konstruktsiyalar va h.k.”. Berilgan ta’riflar qiyoslansa ma’lum bo’ladiki, lug‘at tuzuvchilar okkazionalizmni neologizm deb qarashdan qochishga harakat qilganlar. Ular ko’rsatgan stilistik neologizmlarga berilgan tavsiflar mohiyat jihatidan okkazionalizm tavsiflariga yaqin, lekin birinchisida “tilning lug‘at tarkibiga kirmagan” degan fikr ham borki, u ikkinchi so’z tavsifi ichida yo‘q. Shunday tasavvur tug‘iladiki, okkazionalizmlar neologizmlardan farq qiladigan birliklar, lekin mualliflar ularni qat’iy ravishda neologizm emas, deya olmaydilar. A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da “Okkazionalizm produktiv bo’lmagan qolip asosida yasalgan, faqat shu matnning o’zida qo’llangan so’z, individual uslub neologizmi. Masalan, muzqaymoq (morojний) kabi” degan ta’rif berilgan. Bundan tashqari, lug‘atda okkazional ma’no haqida ham tushuncha berilgan: “Okkazional ma’no (lot. occasionalis - tasodifiy). So’zning semantik strukturasida shakllanib yetmagan, ma’lum individual qo’llashda reallashadigan ma’no: Fan, san’atning gullari butun, to‘plangandi suhbat uchun (Oybek). Bu izoh o‘zbekcha okkazional so‘z va okkazional ma’no haqida aniq ma’lumot beradi. Ko‘rinadiki, “okkazionalizm” “individual uslub neologizmi” termini bilan sinonimik tarzda qo’llanishi mumkin ekan, chunki lug‘atlar qoidalashtirilgan, muayyan me’yorlarga solingan tushunchalarni beradi. Okkazionalizmlarga lug‘atlarda e’tibor berilmoqda ekan, ularning xususiyatlarini sanashda buni hisobga olish kerak, deb o‘ylaymiz. Tasodifiy, favqulodda yaratilgan so‘zlarni nomlashga doir terminlar Okkazionalizmlarga berilgan turli ta’riflar bu masalaga bag‘ishlangan monografiya va maqolalarda ham uchraydi.

Biz bu ta’riflarga ishimizning keyingi sahifalarida o’rni bilan batafsil to’xtaymiz. Tilshunoslikda tasodifiy yaratilgan so‘zlarni qanday nomlash masalasiga ham katta e’tibor berilgan va bunday so‘zlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda turli terminlar taklif qilingan.

Rus tilshunosligida “okkazonal so‘z” termini ilk bor N.I.Feldman tomonidan qo‘llanganini aytdik. U bu so‘zni quyidagicha ta’riflaydi: “Okkazonal so‘zlar so‘z yasashining mahsuldor tiplariga ko‘ra yuzaga keladi va ularning ma’nolari matnda motivlashadi va izohlanadi.” G.Paul ham bu terminni ilk bor qo‘llaganlar qatorida turadi va “okkazonal so‘z”ni uzual ma’noning zidini anglatuvchi termin sifatida ishlatadi. Okkazonal so‘zlar bo‘yicha qator tadqiqotlar muallifi Xanpira shunday yozadi: “Neologizm” termini juda eskidir. Adabiyotlarda hozirgacha “neologizm” termini mavjud bo‘lib, o‘rta maktabda ham faqat shu termin tan olingan. Yangi so‘zlarning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ko‘p qirrali muammoni yoritish uchun bu birgina terminning o‘zi yetarli emas”. Olim boshqa bir maqolasida okkazonal so‘zlarni tasodifiy so‘zlar sifatida talqin qiladi.

So‘zning tug‘ilishi, yaratilish jarayoni bilan tanishish qiziq va muammoli ma’lumotlar beradi. Rus tilshunosligida bu masalaga V.V.Lopatinning “Rojdenie slova” nomli monografiyasi bag‘ishlangan bo‘lib, unda okkazonalizmlarning yaratilishiga ham katta e’tibor berilgan. Tadqiqotchi monografiyaning II bobida to‘laligicha shu muammoni yoritadi. U bunday tasodifiy so‘zlarni atash haqida to‘xtalib, shunday deydi: “Bunday so‘zlarga nisbatan “neologizm” terminini qo‘llash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ko‘pgina tilshunoslar ularni boshqacha atash to‘g‘risida fikr bildiradilar. Bunday so‘zlarga nisbatan ishlatiladigan, ko‘p tarqalgan termin okkazonal so‘zlar yoki okkazonalizmlardir (lotincha occasio - tasodif). Biz ham shu termindan foydalanamiz.” V.V.Lopatin boshqacha terminlar ham mavjudligi haqida bunday deydi: “Lingvistik adabiyotlarda okkazonal so‘zlarning boshqacha termini ham mavjud. Ular turli mualliflar tomonidan taklif etilgan va “okkazonalizmlar” termini kabi keng doirada qabul qilinmagan.” Tadqiqotchi bu terminlarni keltirish o‘rinli ekanligini, ularning har biri o‘zini oqlashini, o‘rganilayotgan hodisaning o‘ziga xos tomonini tavsiflashini va bu bilan ushbu hodisa har tomonlama yoritilishini aytadi. So‘ngra olim bu terminlarni sanab o‘tadi: individual so‘zlar, muallif so‘zlari yoki individual-muallif neologizmlari, stilistik yoki individual-stilistik neologizmlar, matn neologizmi, bir martalik neologizmlar, adabiy neologizmlar, o‘zi yasalgan so‘zlar, ekspromt-so‘zlar, meteor

soʻzlar, shoir neologizmlari yoki poetik neologizmlar. Bular, bizning nazarimizda, eng munosib terminlar (nomunosib deb hisoblaganlarimizni bu yerda keltirmadik, chunki ular real,”- deydi u. V.V.Lopatinning bu fikrlari bizga maʼqul. Lekin tilshunoslikda mavjud boʻlgan imkoniyatdagi soʻzlar (potentsial soʻzlar)ni ham okkazionalizmlar deb atashi bizni biroz oʻylantirib qoʻydi. Chunki imkoniyat hali roʻyobga chiqmaganlik maʼnosini ifodalar ekan, hali kelajakda yaratiladigan barcha soʻzlarga nisbatan potentsial soʻzlar terminini ishlatish toʻgʻri boʻlsa kerak.

A.Arjanov bir qiziqarli fikrni aytadi. Jumladan, u shunday deydi: “Yangi soʻzlarning ikki tipi bor: neologizm va egologizmlar. Ular orasidagi farq anchagina. Klassik neologizmlar shu bilan xarakterlanadiki, ular tezda umumxalq mulkiga aylanadi, turli matnlarga osongina singishib ketadi va lugʻatlar ularni tezda toʻla huquqli soʻzlar qatorida roʻyxatga kiritadi. Egologizmlar – boshqa masala (“ego” – men; bu termin soʻz yasallishining subʼektiv xarakterga ega ekanligini taʼkidlaydi). Ular faqat oʻz matnlaridagina yashaydilar”. A.Arjanovning bu fikrida asos bor. Egologizm terminining mohiyati “soʻz yasallishining subʼektiv xarakterga egaligini” koʻrsatadi, ammo tasodifiylik belgisi unda ifodalanmaydi. Bizga maʼlumki, subʼektiv yasalgan soʻzlarning baʼzilari umumtilga qabul qilinishi mumkin. Masalan, M.Shayxzoda uslubiga xos xalqobod, nurobod soʻzlari umumtil qatlamiga oʻtib ketdi. Lekin okkazionalizmlarning aksariyati oʻzlari bogʻliq boʻlgan matnga xosligicha qolaveradi. V.V.Lopatin egologizm terminini ham munosib, qulay termin deb hisoblaydi. Koʻrinadiki, okkazionalizm termini koʻpchilikka hali singishib ketgan emas. Shuning uchun rus tilshunosligida ham, oʻzbek tilshunosligida ham tasodifiy, muallifning oʻzigina yaratgan soʻzlarga nisbatan turli terminlar qoʻllanmoqda. Lekin har ikkala tilshunoslikda okkazionalizm terminidan foydalanuvchilar soni koʻpayib bormoqda. Bizning nazarimizda, ushbu termini ishlatish maʼqulga oʻxshaydi. Sababi u, birinchidan, umumtilshunoslikda oʻz bahosini olgan. Ikkinchidan, bu terminning maʼnosi ham hodisaning mohiyatini oʻzida aks ettiradi. Uchinchidan, bu termin juda ixcham boʻlib, qoʻllanish uchun qulay. Toʻrtinchidan, u lingvistik terminlar lugʻatlarida oʻz ifodasini topgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda okkazionalizm va

okkazional soʻzlar terminlarini ishlatishni maʼqul deb hisoblaymiz. Mavjud ilmiy adabiyotlarni oʻrganish shuni koʻrsatdiki, okkazionalizm paydo boʻlish xususiyati, neologizm ifodalaydigan tushunchasiga koʻra maʼlum maʼnoda aloqadorlikka egadek tuyuladi. Lekin bu lisoniy hodisalar bir-biridan farq qiladi. Quyida ushbu masala haqida oʻz fikrimizni bildiramiz.

Yangi soʻz (neologizm) va okkazionalizmning oʻzaro munosabati hamda farqini quyidagi toʻrt mezon asosida tahlil qilish mumkin:

1. Muallifning (yaratuvchining) bor yoki yoʻqligi. Bu mezon yangi soʻzni taʼriflash uchun muhim emas. Yangi soʻz – til fakti. Okkazional soʻzlar esa nutq fakti hisoblanadi. Okkazional soʻzlarning muhim belgilaridan biri uning biror muallifga taalluqliligidir. Bunday soʻzlarning aksariyati xotirada qayta tiklanmaydi. Ular biror shaxs tomonidan birinchi bor yaratiladi. Albatta, ogʻzaki nutqda uchraydigan okkazional soʻzlarning kimga taalluqli ekanligini bilish mumkin emas, bunga ogʻzaki nutqning qoʻnimsiz, oʻzgaruvchanligi halaqit beradi, ammo yozma nutq okkazional soʻzlarning yaratuvchisini topishni ancha yengillashtiradi. Bir soʻz bilan aytganda, okkazional soʻzlar printsiptial ravishda aniq shaxsga – ana shu okkazional soʻzning yaratuvchisiga taalluqlidir. Tilda esa uning har bir fakti, shu jumladan, yangi soʻzlar ham faqat ijtimoiy jihatdangina, yaʼni mazkur til egalari boʻlgan barcha kishilar jamoasiga qarashli mutlaq egasiz birlik sifatida ahamiyatlidir. Tildagi barcha soʻzlar singari, keyinchalik egasi unutilgach, yangi soʻzlar umumlashtirilgan va ularning muayyan mualliflarga tegishli ekanligi esdan chiqarilgan.

2. Soʻzning yangilik oʻlchovi muhim, lekin barcha yangi soʻzlar uchun absolyut va majburiy emas. Mazkur oʻlchov hozirgi zamon yangi soʻzlari, soʻzning yangiligi sezilib turadigan dolzarb (faol) yangi soʻzlar uchungina majburiydir. Masalan, tijoratchi, jamoa xoʻjaligi, vazirlik va shu kabilar 90 - yillarda qoʻllana boshladi, hozirgi kunda ularning yangilik boʻyogʻi yoʻqoldi. Neologizm tushunchasining genetik oʻzagi va printsiptial asosi soʻzning yangilik sifatidir. “Demak, neologizm nihoyatda nisbiy tushunchadir. Neologizmning yangilik boʻyogʻini yoʻqotib odatiy, normal soʻzlar qatoriga oʻtishi

tipik qonuniyatdir. Soʻz endi paydo boʻlganida, yangilik boʻyogʻini saqlab turganida neologizm xususiyatini saqlaydi. Yangi soʻz til tomonidan tamoman oʻzlashtirilmaguncha; leksikaning faol zahirasi fondiga qoʻshilmaguncha, yaʼni gʻayritabiiylik ottenkasini yoʻqotmaguncha neologizm boʻlib qolaveradi”. Lekin shunga qaramay, bu xususiyat hamma yangi soʻzlarga ham xos emas. Oʻtmish davrlardagi (nisbiy) yangi soʻzlarda bunday sifat yoʻq, ammo u dolzarb yangi soʻzlarda bor. Shuni unutmaslik kerakki, nisbiy yangi soʻzlar oʻz vaqtida dolzarb yangi soʻzlar boʻlgan. Chunki dolzarb yangi soʻzlar vaqt oʻtishi bilan muqarrar ravishda nisbiy yangi soʻzlarga aylanadi. Dolzarb yangi soʻzlardagi yangilikni his etish ana shu yangi soʻzda boʻlishi lozim boʻlgan majburiy belgidir. Umuman olganda, yangilik xususiyatining yangi soʻzga xosligi mutlaqo shubhasizdir. Bu xususiyat neologizm umumiy tushunchasining asosi boʻlib hisoblanadi. Mana shu maʼnoda E.Begmatovning neologizmning mohiyati yuzasidan aytgan quyidagi fikrlari haqiqatdir: “ Neologizm paydo boʻlish davriga koʻra yangi yoki eng yangi soʻz boʻlib, unda yangilik ottenkasi yaqqol sezilib turadi. Neologizm tilda yangi paydo boʻlgan soʻzdir. U til normativ soʻzlar qatoriga oʻtib ulgurmagan leksemdir. Shu tufayli neologizmlar lugʻat tarkibining passiv qatlamiga mansub soʻzlar hisoblanadi”. Hamma qiyinchilik shundaki, bu xususiyatni tahlil qilgan paytda uni son yoki rasmiy jihatdan xarakterlab boʻlmaydi. Bu oʻrganilayotgan xususiyatning tilshunoslar tomonidan obyektivlashtirish va taʼriflashni juda qiyinlashtiradi. Masalan, tilda paydo boʻlgan soʻz oʻzining yangiligini (va shu bilan birga oʻzining neologizmlilik maqomini) qancha vaqt saqlab qolishini aytib berish juda qiyin, hatto mumkin ham emas. Tilda paydo boʻlgan soʻz semantik jihatdan qanchalik dolzarb, yaʼni unga nutqiy ehtiyoj qancha kuchli boʻlsa, u til jarayoniga qanchalik jadal qoʻshilib ketsa, uning yangiligi shunchalik tez soʻnib boradi hamda uning neologizm sifatidagi muddati ham shunchalik qisqa boʻladi. Masalan, bugungi kundagi bir qator vazir, viloyat, tuman, hokim, telekoʻprik, tamaddinoma, nafaqaxoʻr, taqdimot kabi yangi soʻzlar xuddi shu gʻoyat dolzarbligi va tez-tez qoʻllanishi sababli oʻzining yangiligini yoʻqotdi. Shunday qilib, yangi

soʻzlar bevosita tildagi tarixiy oʻzgarishlar umumiy zanjiriga kiradi va shuning uchun oʻzi ham ana shu oʻzgarishlarga uchraydi.

Neologizm tushunchasining printsiplari shartlari va belgilaridan biri boʻlgan bunday hol tarixiy vaqt mezoni tufayli lingvistik jihatdan kiritilgan, alohida nutq faktisifatidagi okkazional soʻzlarga yotdir. 3. Nihoyat, aytish kerakki, yangi va okkazional soʻzlar til lugʻat tarkibiga kirish yoki kirmaslik mezoni jihatidan ham juda turlichadir. Yangi soʻzlarning til lugʻat tarkibiga kirishi (aniqrogʻi, tilning bir qismi ekanligi) hech qanday shubha tugʻdirmaydi. Adabiy tilning tarixi shundan dalolat beradi. Okkazional soʻzlar sof nutq mahsulidir. Faqat til fakti boʻlib, okkazionallik maqomidan ajralgan (yoki bunday maqomga umuman ega boʻlmagan) taqdirdagina yuzaga kelgan soʻz yangi soʻz deb atalishi mumkin.

E. Begmatov toʻgʻri taʼkidlaganidek: “Soʻzning yangiligi yoki eskiligi soʻzning tilda paydo boʻlish davriga koʻradir. Soʻzning qoʻllanuvchanligi yoki eskirganligi leksemalarning funksional aktivligi yoki passivligiga koʻradir”. Shu maʼnoda har bir soʻzni uning paydo boʻlgan vaqtiga nisbatan printsiplari ravishda neologizm deb atash mumkin. “Tilda yangi soʻzlarni yaratish tilning tarixiy rivojlanishi, uning vaqt jihatidan oldinga harakat qilishi mahsulidir. Shuning uchun tildagi barcha yangi hosil boʻlgan soʻzlarni faqat sinxron tarzda emas, balki diaxron tarzda, yaʼni til rivojlanishining muayyan davrida yuzaga kelganligi nuqtayi nazaridan oʻrganish mumkin”. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, yangi soʻz tushunchasi diaxronidir. Okkazional soʻzlar xotirlanmaydigan xossagagina emas, balki qoʻllanish jihatidan bir martalik va sinxron-diaxron qorishqlik xossasiga ham egadir. Demak, ular tarixiy vaqtga nisbatan taalluqsizdirlar. Shuning uchun bunday soʻzlar neologizm deb atala olmaydi. Shunday qilib, yangi soʻzni taʼriflashda vaqt mezoni zarur, lekin yuqorida koʻrsatilganidek, u absolyut emas, unga nisbiylik jihatidan qaraladi. Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, yangi soʻzga shunday taʼrif berish mumkin: Yangi soʻz tilda oʻz tarixiy hayotining dastlabki bosqichini oʻtayotgan, yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzdir.

Shunday qilib, yangi soʻz terminini okkazional soʻzlarga nisbatan ularning alohida xossalari tufayli qoʻllab boʻlmaydi. Yangi soʻz u yoki bu dalilni (mazkur holda yangi soʻzning ifodalanish dalilini) muayyan faktga bogʻlaydigan tamomila diaxron tushunchadir. Okkazional soʻzlar oʻz “ichki” tarixidan mahrum boʻlganligidan printsiptial jihatdan “notarixiydir”, chunki bir marta qoʻllanishi, aksariyatining xotirada qayta tiklanmasligi va sinxron - diaxron qorishiqqligi tufayli ular tilda uzoq vaqt yashashdan mahrumdir. Okkazional soʻzlarning paydo boʻlishi har holda unga nisbatan tashqi belgi boʻlgan tarixiy faktlar bilan bogʻliq. Masalan, okkazional soʻz oʻzi yuzaga kelgan aniq tarixiy sanaga ega boʻlishi, oʻz aniq tarixiy shaxsi, oʻz muallifi bilan, shuningdek, uning paydo boʻlishiga olib kelgan sabablar va vaziyatlar bilan aloqador boʻlishi mumkin. Bunday soʻzlarga, barqaror (uzual) soʻzlardan farqli ravishda, chinakam tarix yotdir. U vaqti-vaqti bilan oʻzgarib turadigan xususiyatlardan mahrumdir, yaʼni leksik ahamiyat, stilistik boʻyoq, ekspressivlik, soʻz yasovchi struktura va hokazolar sohasidagi ichki rivojlanishdan mahrumdir.

Okkazional soʻzning tarixiy hayoti nuqtali xarakterga ega, chunki uning ishlatilishi printsiptga koʻra diaxron jihatdan uzoqqa choʻzilmaydi. Okkazional soʻzlar tilning vaqt jihatiga dahldor emas, yaʼni uni, paydo boʻlgan vaqtidan qatʼi nazar, na yangi soʻz, na barqaror soʻz deb atab boʻlmaydi. Okkazional soʻzlar yozma matnlarda muhrlanib qolishi mumkin, ammo u ogʻzaki nutqda tugʻilganida nutqiy jarayon tugashi bilan yashashdan mahrum boʻladi. Demak, bunday holda okkazional soʻzlar tarixiy rivojlanish va oʻzgarish omilidan yiroqdir. Okkazional soʻzlarning ana shu biz koʻrsatgan xususiyatlari, yaʼni ularning printsiptial jihatdan “eskirmasligi” ular toʻgʻrisida “doimiy yangi soʻzlar” yoki “abadiy yangi soʻzlar” degan ancha keng tarqalgan fikrlarning kelib chiqishiga sabab boʻldi.

Okkazional soʻzlarni yangi soʻzlar qatoriga qoʻshish toʻgʻri ham, maqsadga muvofiq ham emasdir. Tilning lugʻaviy boyligi boʻlmish har qanday soʻzni maʼlum ehtiyoj, kommunikativ talab yuzaga keltiradi va bu soʻzga muayyan vazifa yuklanadi. Mana shu xususiyat okkazionalizmlarga ham xosdir. Avval ham

ta'kidlanganidek, okkazionalizmlar biror tushunchani o'ziga xos tarzda, yangitdan va ko'p holda ta'sirchan ifodalash ehtiyoji bilan yaratiladi. Bunda so'zlovchidan ma'lum topqirlik, lisoniy mahorat talab qilinadi. Okkazional so'zlar qanday nutq tipida yuzaga kelishiga qarab, o'sha nutq talab qiluvchi vazifani bajaradi va bu orqali nutqning ma'noviy nominativ, kommunikativ ehtiyojini qondiradi. Masalan, oddiy, neytral mavzuli nutqlarda okkazional so'z nisbatan oddiy kommunikativ vazifani o'tashi mumkin, ammo badiiy nutqda yaratilgan okkazional so'z badiiy-estetik vazifani o'taydi va o'zi mansub matnga badiiylilik bo'yog'ini baxsh etadi. Quyida okkazionalizmlarning mana shu xususiyatlariga to'xtalamiz. Badiiy nutqda yaratilgan okkazionalizmlarni o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular turli funksional xususiyatlarga ega. Quyida bu xususiyatlar bilan tanishamiz:

1. Okkazionalizmlar, shuningdek, barcha so'zlar, avvalo, nominativ vazifani bajaradi. Yozuvchi yoki shoir okkazionalizmlarni yaratar ekan, biror narsa, hodisa yoki tushunchani aniq, rangdor ifodalashga harakat qiladi. Bunda doim qo'llanib, biror narsani atab kelayotgan so'zlar o'zgartirilmaydi, balki u yoki bu predmet yoki tushunchani juda aniq atash uchun yoki nutq maqsadini to'la ifodalash uchun yetishmayotgan so'zning o'rnini to'ldirish uchun favqulodda so'zlar yaratiladi. Masalan: Har nechuk, shoirman — sen bilan jondosh,

To'yingda to'ydosshman, tirik yelkadosh. (A.Oripov)

"Rahmat" de, fazoda yo'ldoshlar uchun,

Oyga inoq bo'lgan oydosshlar uchun. (M.SHayxzoda)

Bevijdon jangbozlar bilmaydilarki,

Ilonga chaqtirmas bolasin shunqor. (M.SHayxzoda)

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ko'rinadiki, to'ydossh, oydossh, jangboz okkazionalizmlari o'zlari ishtirok etayotgan ayni shu matnda tushunchani atash vazifasini bajarmoqda. Matnning bunday mazmun ifodalashida ko'rsatilgan okkazionalizmlarni boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Lug'atimizda ularning ma'nosini beradigan, xuddi shu matnga mos keladigan so'zning o'zi yo'q.

Shuning uchun ham bunday okkazionalizmlarning yaratilishini ijobiy hol deb baholaymiz. "Biz mavjud soʻzni oʻzgartirmaymiz, balki bizga kerakli, ammo yoʻq boʻlgan soʻzning oʻrnini toʻldiramiz, — deydi. Ye.A.Zemskaya. Agar tilning har bir uyachasini soʻz bilan toʻlgan yigʻma kassa sifatida tasavvur etsak, bunday hollarda (yaʼni okkazionalizm qoʻllangan holatda — taʼkid bizniki; T.O.) soʻzlovchi boʻsh uyachani toʻldirishga xizmat qiladi". Bunday okkazionalizmlarning faqat nutqda yaratilishi "ularni nutq nominatsiyasi birligi" deb atashga imkon beradi. Okkazionalizmlarning nominativ vazifasi misollarda ham ifodalangan: Paxtazorda oydin bir kecha Yulduzlar-la gʻoʻzalar ulfat.

Yulduzlarni desang oybachcha

Gʻoʻzalarning onasi mehnat... (M.Shayxzoda)

Kimnidir axtarar, portlar bardoshi:

"Hamon yelkadami oʻsha shumroʻylar?" (Mirtemir)

Yuqorida keltirilgan misollardagi okkazionalizmlarning hozirgi oʻzbek adabiy tilida sinonimi mavjud emas. Ular obyektini bevosita ataydi va mavjud narsa, tushunchalarning hali ochilmagan qirralarini boshqa jihatdan koʻrsatadi. Shunday okkazionalizmlar ham mavjudki, ularni tilda mavjud terminlarning sinonimi deyish mumkin: Ombor mudiri Isoqul bilan Ziyodullani, molshunos Ziyodqulni ham oyogʻini yerga tekkizmay topib keltirishibdi.(S. Soliev) Yetmadim yor vasliga, qalbiga san yet sheʼrim, Bunda ul doʻnduqchani sanga bolishdosh qiladi. (A.Obidjon) Yaxshiyam jiyanim kutib turgan ekan. Buni qarangki, uyam futbolgohga tushgan ekan. (N.Aminov)

Misollardagi molshunos - zootexnik, bolishdosh - yostiqdosh, futbolgoh - stadion oʻrnida ishlatilgan. Koʻrinadiki, soʻzlarning adabiy tildagi variant oʻrniga ularning dialektal shakllari ishlatilgan. "Bunday soʻzlar tilning baholovchi vositasi emas, balki eng avvalo, aniq terminlar boʻlgani uchun oʻzlaricha soʻzlovchining his-tuygʻularini ifodalamaydi. Mazmuniga subʼektiv munosabatni bildirish uchun bunday soʻzlarni yo his-tuygʻu ifodalaydigan boshqa soʻz bilan bogʻlash, yoki

sub'ektiv baho suffiksi bilan ta'minlashga to'g'ri keladi". Yuqoridagi misollardagi okkazionalizmlar faqat atash uchun ishlatilgan, lekin ular tarkibidagi -shunos, -dosh affikslari, goh elementi bu so'zlar ifodalayotgan mazmunni muayyan sub'ektiv baho bilan boyitadi. Bu esa mazkur so'zlarga okkazionalizmlik xususiyatini bag'ishlaydi. Quyidagi okkazionalizmlarning adabiy tildagi sinonimlari mavjud.

O'zbekiya - O'zbekiston, sharbatfurush - limonad sotuvchi, bo'vurdoshlik - jigarbandlik, tillachi - paxtakor, raykatta - rayon rahbari, bog'chachi - bog'cha tarbiyachisi, o'zbekzoda - o'zbek farzandi, sukutgoh - qabriston, chopilmalar - chop etilgan material, baletqo'rg'on - balet teatri, yaylog'i - yaylovi, qo'shiqnigor - konsert, saboqdosh - kursdosh, o'zbakiy - o'zbekcha, ovoznigor - magnitofon, yotoqgoh - yotoqxona, xabarkash - xabarchi kabi.

Okkazionalizmlar xabar, ma'lumot (informatsiya) berish vazifasini bajaradi. Bunda okkazionalizmlar tinglovchiga yoki o'quvchiga kutilmagan yangi xabar beradi. Bu xabarning mazmuni voqea - hodisalar, ularning belgilari, shaxs faoliyatlarini ifodalaydi. Misollar: Bu biz botir... bu biz har ishda olamgir. (G'.G'ulom) Biri — bog' egasi, o'zgasi — molchi. (Mirtemir) Yigit Majnun edi, qiz Layli edi, Bu — oftobdil, u — oftobjamol. (E.Vohidov) Misollardagi har bir okkazionalizm o'zi anglatayotgan mohiyat haqida xabar beradi. Har bir xabar shaxs tavsifining tinglovchiga noma'lum bo'lgan qirralari haqidadir. Bu okkazionalizmlarning ayrimlari umumnutq so'zlariga o'xshab yasalgan. Qiyoslaylik: jahongir — olamgir; chorvachi- ishchi — molchi; mohidil — oftobdil; sohibjamol - oftobjamol kabi. Yuqoridagi misollarda okkazionalizmlar shaxs faoliyati haqida xabar bersa, quyidagilar o'quvchi va tinglovchini faoliyatning belgilari bilan tanishtiradi: bir zamondan cho'ng elchi kabi. Darhayrat boqadi ... chor atrof ekin. (Mirtemir) Pongvosh sahro mulkida toparmidi yo'l axir Jayhunona kurashga qodir kelmasa daryo?! (O.Matjon) Barra soqol boltashakul qaychulanib soz Va yana aft - angorimiz mullaga taqqos. (A.Obidjon) Yana shunday

okkazionalizmlar borki, ular voqea-hodisa haqida xabar beradi: Birovlar shivir - shivir gapirishadi, stollar osha xatbozlik qilishadi. (P.Qodirov) Mashinani terlatib paxta ko‘rak terganlar, Qo‘llarini tezlatib, hosillarni uzganlar Xorazmlashsin ishida, ahdni bajarishida... (M.Shayxzoda) Shaxs va voqea-hodisalarning belgilari haqida xabar beradigan okkazionalizmlar ham anchagina uchraydi: Bu yashinvor chinqiriqli Turonda... "Unutganning kuysin ikki dunyosi". (H.Xudoyberdieva) Qarang, kelib-kelib bir g‘archashm qassobga va‘da beribman-a! (N.Aminov) Okkazionalizmlar hayotdagi hamma narsani, tushunchani ataydi ham, ularning faoliyati va belgilari xususida ma‘lumot ham beradi. Bunday qo‘llash ehtiyojdan kelib chiqadi. Ehtiyoj odamni gapirtirar ekan, Tesha tegmagan, kutilmagan so‘zlarni yaratishga ham undaydi. Bu tabiiydir. "Okkazional so‘zlar... insonning faqatgina intellekti – fikrlash qobiliyatigagina emas, balki uning hissiyotiga, voqelikni, dunyoni estetik jihatdan qabul qilishiga bog‘liq holda dunyoga keladi." Har bir ijodkor so‘z yaratar ekan, shu so‘z orqali o‘zining ijobiy yokisalbiy munosabatini ham ifodalaydi. To‘plangan okkazionalizmlarni o‘rganib chiqish shuni ko‘rsatdiki, ularni baholash vazifasini bajarishiga ko‘ra quyidagiga bo‘lish mumkin. **baletqo‘rg‘on, chopilma, to‘yxo‘r, tamoshagoh, guzargoh, sukutgoh, sababkor, sirilmoq, ayovligim, g‘ururdosh, avtoqalam, o‘zbekzoda, zahmatchi, ehtiyojmand, mehnatxona, nonxona, xayolxona, zilzilakor, jangboz, o‘chkor, shubhagar, fazoshumul, uxdadosh, bayroqdosh** kabi. Misollar: Bosh kasalkor kampir bilan salomlashib, so‘ng sariq, ag‘darma mahsi – kalishini shapillatib kasallar oldiga o‘tdi. (A.Muqimov) Qora sochlar ko‘rki o‘zbakiy do‘ppi. (Mirtemir) 2. Ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan okkazionalizmlar: yulduzkent, oydosht, nur kema, she‘riston, kavkabiston, zafaryot, safodo‘z, sersehr, she‘rparast, dilparast, o‘tbardor, fikrchan, xushso‘z, Donishqishloq, novvot qoya, qoyabardosh, sho‘xona, quyoshpayvand, jarangsoz, tavozekor, shafaqqun, bahornaqsh, serfusun, asaliston kabi. Misollar: Hilol ham lol boqarmish mungnoz chehraga. (Dilbaroy) Baxmalpo‘st anjirlar bekam, bexato. (N. Parda) Topshirishib meni serardog‘ xonam qo‘liga... (Zulfiya) Salbiy buyoqqa ega bo‘lgan okkazionalizmlar. Bularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

a) kinoya, piching ma'nosini ifodalovchi okkazionalizmlar: Qishboy, sigirboz, nafosatboz, tekin hurmat, progul tumov, Yaxshi Yamoni, kadrcha, mazmundor magazin, kassa shamollagan, maymuniyat, maymuniy, soqoldosh, molshunos, xurakchilar kabi. Misollar: Ajab bo'libdi, bilaman Siz o'lgurni, yana sekretarbozlikmi? (N.Aminov) ... xotinboz emas, sigirboz, — dedim. (N.Aminov) G'o'zapoyahokim farmon bitadi yana yashashga. (A.Qutbiddin) b) voqea, hodisa, shaxslarning salbiy xususiyatini ko'rsatuvchi okkazionalizmlar: boltashakul, podshohparast, o'yparast, taxtparast, shonparast, o'larmandlik, shumro'y, ranjidaxotir, qo'ng'iroqzor, kitobyoyar, devqarash, bo'yterak, dirdov, vahimador, g'alvador, g'archashm, puchak jonlar, tirik devor, dahanaparastlik, dollarzoda, Kalamushzor, shovqinzor, o'zso'zlik, bo'ronzoda, osqin, buyruqrot, o'riston, chivinxaroba, xudparastlik, zarxo'r kabi. Misollar: Uyning bir cheti to'la yig'loqigul edi. (S. Nur) Alamingga nihoya, Ne taxtparast odamsan. Sen shoh, Senga himoya yo'q, ammo, netay, otamsan. (E.Vohidov) Sen shuncha yuksaltgan bayroq tegsinmi Molparast, shonparast, nopok qo'llarga?! (O.Matjon) Asad kirdi. Kunduzlari "Kalamushzor" adirlar lovillab qishloqqa qaynoq harorat purkaydi. (A.Rizaev) Men xayolni she'rga soldim, O'yparast bo'lma va lek Besamar bo'lsa, seni Bir kun xarob aylar xayol. (E.Vohidov)

Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin. Har qanday holatda ham okkazionalizmlar ijodkorning o'z hissiyotini to'laqonli ifodalashga xizmat qiladi yoki narsa, voqea-hodisa, shaxslarning ijobiy hamda salbiy xususiyatlarining barcha qirralarini aks ettirish uchun lug'atlardagi mavjud so'zlarning imkoni bo'lmaganda, bu vazifani bajarish okkazionalizmlarga yuklatiladi. Lug'atlarda berilgan hammaga ma'lum bo'lgan so'zlardagi imkoniyat so'zlovchining tasavvurida aniq gavdalanadi. Masalan, "ko'z" so'zi matnlarda o'z imkoniyatini namoyon etadi: odamning ko'zi, uzukning ko'zi, tizzaning ko'zi, ishning ko'zi, yog'ochning ko'zi, derazaning ko'zi, qalb ko'zi kabi. Ko'z so'zining har bir ma'nosi birikmada keltirilgan so'zlarning ma'nolari o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi natijasida ro'yobga chiqadi. Demak, hammaga ma'lum bo'lgan muayyan so'zlar matnga bog'liq bo'lar ekan, shu bilan birga ularning o'zlari ham shu matnning

shakllantirilishi uchun xizmat qiladi. Okkazional soʻzlardan nazmroʻy, turmushaviy, aqlavval kabilar soʻzlovchi va tinglovchi tasavvurida oʻta mavhum gavdalanadi. Ularning maʼnolari matndagina roʻyobga chiqishi mumkin. Ana shundagina ularning maʼnolari qanday maqsad uchun kerak boʻlganligi ravshanlashadi.

Sheʼrdagi qaysi misra okkazionalizm emas? fazoli manzaralar, boʻyoqlarga toʻlgan xayolxonasi faqat bir marta ishlatilayotganligi, gʻayritabiiyligi bilan inson hissiyotiga taʼsir etadi. Bu oʻrinda mavjud til birikmalari nutqda oʻzgacha birikmalar hosil qilib, til bilan nutq orasidagi munosabatda ziddlik namoyon boʻlmoqda va bu ziddlik estetik qimmat kasb etmoqda. Demak, til va nutq birliklarining oʻzaro zid munosabatda boʻlishi natijasida vujudga kelgan gʻayritabiiylik okkazionalizmlarni paydo qiladi, yaʼni til birliklari nutqda adabiy sheʼr oʻlchovidan chetga chiqadi va kutilmagan nutqiy shakllar yaraladi. Bu nutqiy shakllar yuqorida sanalgan nominativ, xabar berish, baholash vazifalari bilan birga estetik vazifani ham bajaradi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, okkazionalizmlarning baholash vazifasi estetik vazifa bilan qay jihatdandir chatishib ketadi. Agar ijobiy maʼno ifodalaydigan okkazionalizmlar estetik kategoriyalardan biri — goʻzallik bilan maʼno jihatdan aloqador boʻlsa, salbiy maʼno ifodalaydigan okkazionalizmlar esa xunuklik kategoriyasi bilan bogʻliq boʻladi. Goʻzallik va xunuklik maʼnolari ifodalanib, inson ruhiyatiga taʼsir qilish, unda zavq-shavq, oʻychanlik, taajjub yoki nafrat tuygʻularining vujudga kelishiga turtki berishi okkazionalizmlarning estetik vazifasidan kelib chiqadi. Okkazional soʻz shunday birlikki, u kishini nafaqat aqliy bilimga, balki hissiy bilishga, yaʼni voqelikni estetik jihatdan qabul qilishga undaydi.

Bob boʻyicha xulosa

Eshqobil Shukurning yangi soʻz ijodkorligi va oʻzbek tilida yangi soʻzlar, okkazionalizmlarning funktsional-uslubiy va badiiyyestetik xususiyatlarini oʻrganish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Eshqobil Shukurning o'ziga xos hayot yo'li va so'z tanlash mahorati, so'z ustida ishlash malakasi haqida yorqin xulosalarga kelish uchun uning so'zlar etimologiyasiga doir yondashuvlarini alohida o'rganish lozim.

2. Yangi so'zlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish, neologizmlar va okkazonializmlarni she'riy matnlardan to'g'ri ajratish uchun ula haqidagi nazariy ma'lumotlarga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq. Ijodkor nutqining individual mahsuli bo'lib qoladigan, tilning me'yoriy unsurlariga aylanmaydigan, doimo yangilik bo'yog'ini saqlaydigan nutqiy hodisadir.

3. Okkazional so'zlar odatiy, ya'ni me'yoriy leksikadan qo'llanish chastotasi, nutqda uchrash darajasiga ko'ra, yangiligi, adabiy normaga bo'ysunmasligi va faqat nutq birligi bo'lib qolishi bilan keskin farqlanib turadi.

4. O'zbek tili okkazonializmlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, okkazional so'zlar nutqning mazmunini aniq, to'g'ri, obrazli va barcha qirralari bilan aks ettirish maqsadida yaratiladi. Bu ma'noda ular nutqda muayyan badiiy-estetik vazifani bajaradi.

5. Okkazionalizm bilan neologizmning qiyosi shuni ko'rsatadiki, okkazonializmlarning yangiligi tarixiy vaqtga bog'liq emas, ularga tildagi turli davr o'zgarishlari taalluqli bo'lmaydi va tilning me'yoriy leksikasi tarkibiga kirishi muammolidir. Neologizm tarixiy vaqtga nihoyatda bog'liq hodisa, chunki har bir davrning o'z neologizmi bor, ularni yaratuvchi muallif aniq emas, ular tildagi tarixiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Masalan, tuman, hokim, vazir, mahkama, viloyat so'zlari hozirgi kunda tarixiylik xususiyatini yo'qotib, yangi ma'no bilan yana qo'llana boshladi. Shuningdek, neologizmlar, okkazional so'zlardan farqli ravishda, til lug'at tarkibining to'laqonli a'zosidir. Mana shunday qiyoslash natijasi ko'rsatadiki, okkazionalizm – nutq birligi, neologizm esa til birligidir degan xulosaga qo'shilish mumkin.

6. Okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifasini tadqiq qilishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, okkazional so'z eng avvalo nominativ vazifani: [futbolgoh

(stadion), molshunos (zootexnik)]; ikkinchidan, xabar berish vazifasini: [ranjkom, ganjkom, olamgir, molchi kabi]; uchinchidan, baholash vazifasini: [maymuniyat, molshunos, xurракchilik (salbiy baho); nur kema, oydash, sersehr, novvot qoya (ijobiy baho)]; shuningdek, estetik va obrazlilikni ifodalash vazifasini [asaliston, bahornaqsh, gʻazalnaqsh, baletqoʻrgon, yashin soʻnggi, progul tumov] bajaradi.

7. Badiiy nutqda okkazionalizmlar tilda mavjud boʻlgan tushunchalarni boshqacha ifodalash, soʻzga yangi maʼno yuklash va yana boshqa xil nutqiy talablarni kondirish uchun ishlatiladi. Masalan, gulgun soʻzi ifodalaydigan tushunchaning shafaqgun orqali berilishi, qulflamoq lugʻaviy birligi oʻrnida kalidlamok, xotinboz buqa soʻzining oʻrnida sigirboz, kollektiv oʻrnida gullektiv, kallapoʻsh oʻrnida gullapoʻsh okkazionalizmlarining qoʻllanilishi fikrimizning dalilidir.

II BOB. SHEʼRIYATDA SOʻZ IJODKORLIGI

2.1 Eshqobil Shukurning soʻzdan foydalanish mahorati. Millatni millat sifatida tutib turadigan ustunlar bor. Bular milliy tafakkur, milliy maʼnaviyat, milliy did, milliy madaniyat kabi tarixiy aqlimiz va salohiyatimizning majmualaridir. Lekin bularning barchasining zaminida bitta ganjina yotadiki, usiz hech bir ustun oʻzini tik tutib turolmaydi. Bu milliy tildir. Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Fitrat, Usmon Nosir, Oybek, Mirtemirlar ona tilimiz haqidagi shunday hujjatni koʻrganlarida qatagʻon xandaqlaridan buyuk togʻlarday oʻsib chiqardi. Yana bir oʻy oʻtdiki, uzogʻi bilan bir-ikki oyning ichida har bir odamdan tortib, mamlakatimizning hamma jabhalarida tilga munosabat keskin oʻzgaradi. Bu borada ijobiy maʼnodagi inqilob sodir boʻladi. Afsuski, bunday boʻlmadi. Shunday muhim farmonga biz munosib javob bera olmayapmiz. Harakatlarimiz ancha sust kechyapti. Lanjlik qilyapmiz. Keling, bu borada qilinayotgan va qilingan ishlardan emas, tezda qilishimiz kerak boʻlgan ishlardan gaplashaylik. Amalga oshirilgan amallar oʻzimizniki. Bunday vaziyatda beixtiyor Qonun, ijro va ommaviy saviya haqida oʻylab qolar ekansan. Chunki ommaviy saviyaning darajasi Qonunnnning mohiyatini ochadi va ijrosini taʼminlaydi.

Imkoniyat berilmasa, iloji yo‘q, ta‘qiqlar bor, tilimizni tiyib o‘tiraylik, deymiz. Imkoniyat berilsa, rivoyatda aytilganiday, oyog‘idagi zanjir yechilsa-da, joyidan qimirlashni istamagan fil kabi qimirlamaymiz. Holbuki, Shayx Sa‘diy “Qimirlagan qudratlidir” deganlar.

Farmondan so‘ng mamlakatimizning yuragi sanalgan Toshkent shahri ko‘chalaridagi peshlavhalarda, yozuvlar-u reklamalarda ajnabiy so‘zlar bosimi necha foizga o‘zgardi? Uch oyda uch foizgayam o‘zgarmagan. Hamon shaharning muhtasham ko‘chalaridagi har 20 ta do‘konning uchdan ikki qismi ajnabiy nomda. Hamon o‘zbek tilidagi yozuvlardan ko‘ra boshqa tildagi yozuvlarning salmog‘i ancha baland. Xususan yoshlarimiz har kuni tomosha qiladigan, ko‘rsatuvlarining 80 foyizi ajnabiy so‘zlar bilan nomlangan xususiy telekanallarning nechta ko‘rsatuvi nomini o‘zgartirdi? Bittasi ham o‘zgartirmagan. Dunyoda befarqlikdan yomon narsa yo‘q. Ya‘ni, na uyoqlik, na buyoqlik! “Nima bo‘lsa bo‘lar, menga nima?” degan aqida bilan yashash... Befarqlik hamma illatlarning inkubatoridir.

Buning ustiga til qoidalari har qadamda buzilyapti. Ommaviy axborot vositalarini olasizmi, idoralararo hujjatlar aylanishini kuzatasizmi, kino yo seriallarni ko‘rasizmi, hatto kitoblarni olasizmi va hakazo va hakazolarda tilga e‘tiborsizlikka duch kelaverasiz. Biz o‘tgan yili ashaddiy qoidabuzarlar va tartibbuzarlarni ham bor-yo‘g‘i 3-4 oy ichida qat‘iy tartibga olish mumkinligini amalda ko‘rdik, bunga o‘zimiz guvoh bo‘ldik. Yo‘l harakati qoidalariga amal qilish bo‘yicha keskin choralar ko‘rilishi qisqa muddatda o‘z natijasini berdi. Til qoidalari masalasida ham xuddi shunday qat‘iy va keskin choralar zarur, nazarimda. Davlat tili to‘g‘risidagi Qonunga bepisandlik bilan qaraganlarga, uni buzganlarga yaxshigina jarima solish, kerak bo‘lsa lavozimi bilan bog‘liq aniq choralar ko‘rish kerak bo‘lyapti, xuddi yo‘l qoidalarida qilinganidek.

Yoshlar tili tashvishlanarli holda. To‘g‘ri, bilimdon zukko yoshlarimiz bor, ular tilga e‘tibor qiladilar. Umidimiz ham shulardan. Lekin yoshlarning ommaviy holida til masalasida jiddiy muammolar bor. Ularning ko‘pchiligining tili go‘yo o‘zbek tili emas, allaqanday jargon tiliga o‘xshab qolyapti. Ba‘zi bolalarimiz

gapirayotganda eshitib turib, men o'z ona tilimni tanimay qolyapman. O'zbek tilini haqorat qiladigan darajadagi estrada qo'shiqlari paydo bo'lyapti. Ularda til xo'rlanadi. Biz bunga indamaygina yo'l beryapmiz, hatto targ'ib ham qilyapmiz, qarsaklar chalyapmiz. Ko'pchilik yoshlar ona tilidan ko'ra o'sha qo'shiqlardagi jargonni o'ziga tezroq singdiryapti. Xohlaymizmi, xohlamaymizmi, yoshlarda til qanday bo'lsa, fikrlash darajasi ham shunday bo'ladi. Undan ortiqcha bo'lishi mumkin emas. Bu matematikadagi formuladay gap. Qo'shiluvchilarning o'zni almashgan bilan yig'indi o'zgarmaydi. Yoshlar tilidagi ma'naviy no'noqlik esa bevosita ta'lim tizimidagi tilga munosabatga borib taqaladi. O'qituvchi qanday fandan dars bermasin, undan o'quvchilar til madaniyatini ham o'rganishlari kerak. Dars o'z oti bilan dars. Hatto aniq fandan dars berilayotgan bo'lsa-da, unda bilim til vositasida singdiriladi. Demak, o'qituvchining til madaniyati fanni qanday tushuntira olishini ham belgilab beradi. Jonkuyar, fidoyi, zahmatkash, zakiy o'qituvchilarimiz qatorida, taassufki, bitta ma'lumotnoma yozishga qo'li qaltirab qoladigan chalamullalar ham uchrab turadi. Kelajak esa, o'quvchidan ham avval, ota-onadan ham avvalroq yaxshi o'qituvchilar bilan bog'liq. Yaxshi o'qituvchi tilni ham, elni ham yaxshilaydi. Shunday o'qituvchilarimiz ko'paysin.

Tilimizning taqdiri yoshlarning zimmasida. Axir Ona tilimiz ertaga shu yoshlar tilida va dilida yashaydi-ku. Yoshlarimiz ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazyapti. Ijtimoiy tarmoqlarda jamiyatga foydasi tegayotgan fikrli bloggerlar bor. Lekin yana shunday bloggerlar toifasi paydo bo'lyaptiki, ularning ba'zilariga inshomi, diktantmi yozdirib ko'rsangiz, har sahifada 20ta xato qilishi tayin. Oqibatda ular buzuq tili bilan elning dilini buzyapti. Savod degani shunday narsaki, u bittagina jumlada o'zini namoyon etadi. Savodsiz odamning ommaga maqola e'lon qilishi jarrohlikdan bexabar aravakashning bir kasalni operatsiya qilishi bilan barobardir.

Milliy ma'naviyatning asosi milliy til dedik. Shu masalada yana bir gap. Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda "ma'naviyat shaxsiy masala, unga davlat ham, boshqalar ham aralashmasligi kerak" degan ma'nodagi chaqiriqlar paydo bo'lyapti.

Xalqimizda el tushunchasi juda aziz tushuncha. El xudbinlikni, individulizmni, yakka shumshuklikni yomon ko‘radi. Ma‘naviyat shaxsiy masala emas. U osmondan tushganday yo yerdan chiqqanday bir odamning ichida to‘satdan paydo bo‘lib qolmaydi. Odam do‘konda sotiladigan ajdodsiz qo‘g‘irchoq emas-ku. Ota-on, bobo-momo degan gaplar bor. Men o‘z ichimdagi ma‘naviyatning 55 foizini ota-onam, bobom va momomdan olganman desam, to‘g‘ri bo‘ladi. Qolgan 45 foyizi ko‘rib-kechirganlarim va o‘qiganlarimning tuhfas. Mening ma‘naviyatim mening ma‘nomdir. Bu ma‘noni faqat o‘zim tiklaganman desam, yolg‘onchilik va xudbinlik bo‘ladi. Aytganimday, bobom, momom, otam, onam, qadrdon maktabim, universitetim, elim, ona yerim... Ma‘naviyat elga taalluqli. Ma‘naviyatli odamlarning birlashuvidan el paydo bo‘ladi. Yanayam aniqrog‘i, odamlar ma‘naviyatni emas, ma‘naviyat odamlarni birlashtiradi, xuddi Ona Til kabi. Ma‘naviyatsiz odamlar birlashsa, poda paydo bo‘ladi. Milliy til mahv etilgan joyda ma‘naviyatsizlik zaharli qo‘ziqorinlarday potirlab gullaydi. Chunki, unda el yo‘qoladi. Bunday falokatdan har bir xalqni Xudoning o‘zi asrasin!

Keyingi paytlarda o‘zbek tili fani bo‘yicha davlat attestatsiyasini joriy etish masalasida gaplar bo‘lyapti. Bu juda yaxshi. Ushbu davlat attestatsiyasi maktablar, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari o‘rtasida ham, shuningdek, korxona va tashkilotlar rahbarlari miqyosida ham o‘tkazilishi kerak. Shunda har qanday korxona yo tashkilot rahbari o‘zi rahbarlik qilayotgan joyda davlat tiliga munosabat qandayligini yaxshiroq his etadi. Qolaversa, bu ish davlat tilining nufuzini oshirishda amaliy chora bo‘ladi, mas’uliyatni kuchaytiradi.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish borasida oldimizda ulkan va sharafl i ishlar turibdi. Olimlarimiz, adib va shoirlarimiz amalga oshiradigan qator vazifalar borki, buning o‘zi alohida katta mavzu. Yozsak bir kitob bo‘ladi. Muhimi, insoniyat boshidan kechirayotgan xatarli kechmishlar oldida befarq bo‘lmaylik. Ona Til, Ona Yer, Ona Vatan taqdiriga o‘z taqdirimiz deb qaraylik. Ana shunda bir-birimizga qarab “Biz nega shundaymiz?” degan

afsusli savolni bermaymiz. Globallashuv sabab dunyoda o'nlab tillar tanazzulga uchrayapti.

Eshqobil Shukur iste'dodli shoir sifatida nafaqat yangi she'rlar, balki yangi so'zlar ham kashf qilishini keng kitobxon ommasi, shoirning muxlislari yaxshi biladi. Bundan tashqari, so'zlarning etimologiyasi, ular ifodalayotgan ma'no haqida ham bir qator izlanishlar olib borgan. Quyida ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Ona tilim - oltin sandig'im. Tilimiz tarixida arab tilidan kirgan **“basir”** so'zi “ko'ruvchi”, “ko'ra oluvchi”, “kuzatuvchi”, “sezgir”, “o'ta sezgir” ma'nolarida ishlatilgan. Biroq negadir keyingi davrlarda “basir” so'zi ko'zi ko'r ma'nosida ham qo'llanadigan bo'lgan. “Basirat” so'zi ham “ko'ruvchanlik”, “ziyraklik”, “sezgirlik”, “o'tkir zehnlilik” mazmunini ifodalab kelgan. Navoiy davrida olimlar donishmandlar ahlini “basirat ahli” deyishgan. Shoir “Hayrat ul-abror” dostonida shunday yozgan:

Sirri haqiqatdin o'lub bahravar,

Ayla basirat ko'zi birla nazar.

Oradan besh asr o'tib, “basir” so'zi boshqacha ma'noga keladi. Bu so'z ko'zi ko'r mazmunini ham ifodalaydi. “Navoiy asarlari lug'ati”ning 1973-yilgi nashrida ham, to'ldirilgan 1983-yilgi nashrida ham “basir” so'ziga biror nuqtada “ko'zi ko'r” ma'nosida izoh berilmagan. 1983-yilgi nashrda lug'atga “basar” so'zi qo'shiladi, bu so'z “ko'z”, “ko'rish”, “ko'ra olish quvvati”, “ko'z quvvati” ma'nolarida izohlanadi. Navoiyning: “Kim basar hissi qorong'u kechada qildi g'alat” degan misrasida ham “basar hissi” ko'rish sezgisi mazmunida keladi.

Qumg'og' va saksovul. Saksovul qumli joylarda, cho'llarda o'sadi. Bu daraxtning ildizi yantoq tomiridan ham uzoqqa ketadi, qaqragan cho'lda ham suvga yetadi. “Saksovul”... Bu chiroyli so'zning etimologiyasi haqida aniq ma'lumotlar uchratmadim. “Saksovul” so'zi tarkibidagi “sakson”dagi “saks” va “ovul” so'zlari haqida o'yladim, “saksovul”ni “yasavul”, “jig'ovul”, “shig'ovul”

soʻzlari bilan solishtirib koʻrdim, lekin biror joʻyalibroq taxminga kelolmadim. Ammo “saksovul” soʻzining maʼnodoshini uchratib qoldim.

Manzar Abulxayrovning “Navoiy asarlarida soʻz va iboralar” kitobida tariximizda saksovulni “qumgʻogʻ” deb ifodalash ham boʻlgan deb koʻrsatilgan. Bunday nomlanishga saksovulning choʻlda, qumda oʻsishi sabab boʻlgan boʻlishi kerak. Xususan, bunday ifoda Alisher Navoiy asarlarida uchraydi.

Garchi quyoshdin parvarish olam yuziga omdur,

Sahroda qumgʻogʻu tikan, boʻstonda sarvu gul butar

Ulapa va ulufa. Bolaligimizda biror bola ayb ish qilib qoʻysa, unga kattalar: “Bu bolaning ulapasini berib qoʻyish kerak” degan gapni ishlatishardi. Umuman, “ulapa” soʻzi jazo maʼnosida qoʻllanardi. Birov kimdandir xafa boʻlsa, “Shoshmay tursin, hali ulapasini qoʻliga beraman” deyar edi. Xullas, “ulapasini berish” xalq iborasi darajasiga koʻtarilgan gap edi. Lekin “ulapa” soʻzining aniq maʼnosini yaqin-yaqingacha bilmasdim. Hatto, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da ham bu soʻz haqida hech narsa deyilmagan. Bolaligimdan menga tanish boʻlgan bu soʻzning asl maʼnosini boshqa joydan topdim.

“Tarixiy harbiy terminlar lugʻati”da izohlanishicha, oʻrta asrlarda harbiylarga beriladigan ish haqi, maosh “vajh” soʻzi bilan ifodalangan. “Ulufa” soʻzi amaldor va lashkarboshilarga beriladigan oylik maosh mazmunini bildirgan. Bobur “Boburnoma”da bu soʻzni ishlatgan ekan: “Behrada boʻlgʻon turk va yerlik sipohilarning dagʻi vajh va ulufalarini ortturub, Hindubekka koʻmak qoʻyduk”.

“Navoiy asarlari lugʻati”da “ulufa” soʻzi maosh maʼnosidan ham oldin “hayvon yemishi, ozigʻi” mazmunini bildirishi aytib oʻtilgan. Xalq orasidagi “Ulapasini berib qoʻyaman” iborasi esa kinoya maʼnosida qoʻllanar ekan.

Kezanak. “Kezanak” degan soʻz koʻproq chorvadorlarimiz tilida ishlatiladi. Bu soʻz tilimizda juda kam qoʻllansa-da, unga ehtiyoj bor. Ot, qoʻy, qoramolning toʻpiqdan yuqori, pochasinging ingichka qismini xalqimiz “kezanak” degan.

Hozirgacha kezanak soʻzi chorvadorlar, qassoblar, oshpazlar tilida bor. Lekin bu bechora soʻz hatto “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga ham kirmay qolgan. Bugungi kunda tuyuq, toʻpiq, poycha, kezanak kabi mol oyogʻining qismlari birgina “mol oyogʻi” degan soʻz bilan ifodalanadi. Bunday soʻzlar tilimiz bogʻida tursa, hech kimdan non-osh tilamaydi, aksincha, bu bogʻni boyitadi. Choʻponlar soʻyilib, kalla-pochasi pishirilgan qoʻyning kezanagiga qarab ham bu uning qanday qoʻy ekanini aytib bera oladi.

Emaklash feʻlining maʼnosini hammamiz bilamiz. Dustaman tushib qoʻl yordamida butun gavdani sudrab borish, aniqrogʻi dustaman yotib yurish. Ikki qoʻl kafti va ikki tizza bilan harakatlanish ham shu soʻz bilan ifodalanadi. Bu ancha qiyin ish. Xoʻsh, nega bu holatni emakladi, emgakladi deymiz? Mahmud Koshgʻariy “emgäk” soʻzini mehnat va mashaqqat maʼnolarini anglatadi deb izohlagan. “Emgändi” soʻzi “qiynaldi” mazmunini bildirgan.

Haqiqatan ham emaklayotgan odam qiynaladi, mashaqqat chekadi. Faqat qoʻlga tayanib butun gavdani harakatga keltirish oson emas. Demak, “emakladi”, “emgakladi” soʻzlari qiynaldi, mehnat qildi, mashaqqat chekdi maʼnolaridan kelib chiqqan. “Alisher Navoiy asarlari lugʻati”da ham “emgak” soʻzi “mashaqqat, kulfat” maʼnosida izohlangan. “Ne ajab sorgʻorsa yuz, yetkan soyi emgak menga” deydi Navoiy. Davr oʻtishi bilan “emgak” soʻzining “kulfat” maʼnosi isteʼmoldan chiqqan, “mehnat” maʼnosi keyingi zamonlargacha saqlanib qolgan. Mirtemir yozadi:

Sen uchun dalaning chokini soʻkdik,

Bola oʻstirgandek emgaklar toʻkdik.

Tilimizda “emgakchi” degan soʻz “mehnatchi”, “mehnat qiluvchi” maʼnosida keladi.

Yilqi. Otlar podasini “yilqi”, “jilqi” deymiz. “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da “yilqi” soʻzi “Turkiy tillar etimologik lugʻati”ga koʻra “bir joyga toʻpla” maʼnosini anglatgan -yil feʻliga -qi qoʻshimchasi qoʻshilishi bilan yasalgan, deb

izohlangan. Sharqshunos A. Vamberi “yilqi” soʻzidagi -yil oʻzagini “-yigʻil” feʻlining qisqargani degan farazni aytadi. Mahmud Koshgʻariyda “yilqi” soʻzi “jilqi” – “toʻrt oyoqli hayvon” maʼnosida keladi, deyilgan. Ot podasi maʼnosida emas, umuman toʻrt oyoqli hayvonlar maʼnosida. Negadir Alisher Navoiyda ham bu qadimiy soʻzga duch kelmadim, balki bordir. “Muhokamat ul lugʻatayn”da ham otlarning turi va yoshi haqida soʻz boradi, lekin “yilqi” soʻzi ishlatilmaydi. Shu oʻrinda yana bir taxmin: Gʻanijon Abdurahmonov va Alibek Rustamovning “Qadimgi turkiy til” kitobida aytilishicha, “yol” soʻzi qadimgi tilimizda “yil” shaklida boʻlgan. Yilqi yolli boʻladi. Qolaversa, tilimizda ot yasovchi “-qu” (“-qi”) va “-gʻu” qoʻshimchalari boʻlgan. Bu bir taxmin. Lekin, asosiy manbalarda yilqi soʻzi “yilqi” shaklida berilgan.

Tilimizda “Yilqi – molning poshshosi, tuya molning qashqasi”, “Toʻqson toʻqay yilqisi bor” kabi maqol va iboralar moʻl. Yusuf Xos Hojib “yilqi” soʻzini boshqacha ishlatgan:

Oʻpish, hoʻplash, oʻpqon, oʻpka... Xoʻsh bu soʻzlarni nima bir-biriga bogʻlab turadi? Ularda qanday yaqinlik bor? Shavkat Rahmatullaevning “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da shunday gap bor: “Qadimgi turkiy tilda, masalan ich tomonga tort” maʼnosini anglatgan op – (oʻp) feʻlidan “boʻsa ol” maʼnosini anglatgan öp (oʻp) feʻli ... unli tovushining yumshoqligi bilan farqlangan”. Bu taʼkid menda boshqa bir mulohazani uygʻotdi.

“Turkiy tillar etimologik lugʻati”da op soʻzi yeb qoʻymoq, komiga tortmoq, yamlamay yutmoq maʼnolarini ham anglatadi deyilgan. Bu maʼnolarda ham baribir “ichga tortish” mazmuni bor. Odam suvni hoʻplaganda ham ichiga tortadi. Oʻpishda ham shu holat seziladi. Oʻpqon suvni tortib ketadigan yer ostidagi koʻrinmas chuqurlik, girdob degani. Demak, oʻpqonda ham ichiga tortish maʼnosi bor. Nafas olish aʼzosi – oʻpka ham nafasni ichiga tortadi. Shuningdek tilimizda sakrash, hatlash paytida aytiladigan “Hoʻp!” degan undov soʻzi bor. Aslida sakrayotgan odam “Hoʻp!” deb nafasni ichiga tortib oladi-da, soʻng sakraydi. Bunda ham nafasni ichiga tortish, kuchni ichga yigʻish maʼnosi bor.

Eshqobil Shukurning “Yozuq” bilan yozug‘ so‘zlari o‘rtasidagi nozik farqlarni ko‘rsatib bergani ham e‘tiborga loyiqdir.

O‘zaro muomalada yoki badiiy asarlarimizda “Yozug‘i ne edi?”, degan iboraga duch kelsak, ba‘zan uni “Manglayidagi yozuvi ne edi”, degan ma’noda ham tushunamiz. Xo‘sh, “yozuq”(“yazuq”) so‘zining o‘zagi “yoz”(“yaz”) qanday ma’noni bildiradi? “Qadimgi turkiy til” kitobida izohlanishicha, qadimda “yaz” so‘zi “yomonlik qil”, degan ma’noni anglatgan. “Yozuq” so‘zi esa, “gunoh” ma’nosini bildirgan. “Yozyovon”dagi “yoz”. (Farg‘onada) “Yozyovon”, degan joy bor? Xo‘sh, “yozuq” so‘zidagi “yoz” “yomonlik qil”, degan ma’noni bildirsa, “Yozyovon”dagi “yoz” qanday mazmunni anglatadi? “Yozyovon”dagi “yovon” aslida “yobon” bo‘lib, uning ma’nosi “dala, dasht”, degani. Endi bu so‘zdagi “yoz”(yaz) so‘zi haqida to‘xtalsak,. Qadimda “yazi” so‘zi ham “cho‘l, dala” degan ma’noni anglatgan. U holda “Yozyovon”da bir xil ma’nodagi ikkita so‘z qaytarilganmikan? Ehtimol, “Yozyovon” — “dashtu dala”, deganidir. Chunki “dasht” bilan “dala”ning farqi bor. Dasht yovvoyi, dala esa, madaniylashgan ma’nosida. So‘zning ma’nosini izlasang fikr kelaveradi-da. Yovvoyilikning o‘zi tabiiylik emasmi? Deylik, yovvoyi o‘t tabiiy ko‘kargan o‘t-ku. Nega biz tabiiy narsani yovvoyi deb ataymiz? Endi bu boshqa mavzu. Sahrodagi “yovvoyi” Odam o‘z qo‘liga kirmagan, o‘z tasarrufida bo‘lmagan, o‘zi egallamagan narsalarni o‘ziga begona, yot, yov, yovvoyi deb bilgan. Deylik piyozpoyadan ko‘kargan tabiiy o‘tni “begona o‘t”, deymiz. Balki bu yerda ko‘kargan piyoz begonadir. Ezop aytganiday, dehqon yerga qadagan urug‘ yer uchun o‘gay farzand, tabiiy ko‘kargan o‘t esa asl farzand, ehtimol. Xo‘sh, umumiy ma’nosi “qo‘lga o‘rgatilmagan”, “inson qo‘li bilan bunyod etilmagan”, deb izohlangan “yovvoyi” so‘zining asl mazmuni nima? O‘zbek tilining etimologik lug‘atida izohlanishicha, “bu sifat qadimgi turkiy tildagi “sahro” ma’nosini anglatgan “yaba” otidan –yi qo‘shimchasining qo‘shilishi bilan yasalgan bo‘lib, asli “o‘z-o‘zicha yashaydigan, o‘z-o‘zicha o‘sadigan”, degan ma’noni anglatgan”. Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, “yovvoyi”ning tub ma’nosi “sahroyi” bo‘ladi. Qo‘shimcha sifatida: “yaba” so‘zi “sahro” ma’nosini anglatga, “Yozyovon”dagi “yobon” ham “sahro”

mazmunidadir, ehtimol. “Tirik” nimasi bilan tirik? Har kuni qayta-qayta ishlatadiganimiz “tirik” soʻzi hamisha tirik va tetik. Mahmud Qoshgʻariy izohiga koʻra, “tir” soʻzi asli “yasha” degan maʼnoni anglatadi. Demak, “tirik” soʻzi ham aynan shu “tir” soʻzidan kelib chiqqan. Oʻz-oʻzidan ayonki, tirik yashashi bilan tirik. Kesilgan “kesak” “Kesak” soʻzi ham oʻz ildizi haqida oʻzi aytib turibdi. U “kes” soʻzidan hosil boʻlgan va qadimgi davrlarda “kesak” “kes” deb ishlatilib, unga -ak qoʻshimchasi keyin qoʻshilgan. Hozir tilimizdagi “kesakladi” feʼli ham “kesladi” shaklida boʻlgan. Umuman, “kesak” quritilgan loyning boʻlagi, kesilgan qismi mazmunini bildiradi. Koshgʻariy izohiga koʻra, qadimda har narsaning boʻlagi, parchasiga ham “kesak” deyilgan. “Kesak neng” — narsaning boʻlagi. Hozirgi tilimizda bu soʻzning faqat yerdagi kesak mazmunidagi maʼnosi saqlanib qolgan.

Boborahim Mashrabning “oʻrtar” radifli gʻazali haqidagi mulohazalari ham aniq xulosalar beradi. Bu gʻazalning qoʻshigʻini xirgoyi qilmagan kishi kam topiladi.

*Agar oshiqlik im aytsam, kuyib jonim, jahon oʻrtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, yurak-bagʻrim chunon oʻrtar.*

Gap shundaki, shoir gʻazalda “oʻrtar” soʻzini shu qadar mahorat bilan ishlatganki, har bir baytda bu soʻz tub ildizi bilan toʻliq namoyon boʻlgan. Qadimgi tilimizda “oʻrt” soʻzi “yongʻin” maʼnosini anglatgan. “Oʻrtar” soʻzi ham shundan kelib chiqqan. Qiltiriq Biz, odatda, qiltiriq deganda nihoyatda ozgʻin, juda oriq, degan maʼnoni tushunamiz. Holbuki, “qiltiriq” coʻzining tub maʼnoci don qobigʻi uchidagi ingichka uzun qilcha, demakdir. Oʻzbek tilining etimologik lugʻatida izohlanishicha, bu coʻz qadimda ham shunday maʼnoni anglatgan.

Oʻylab qarasangiz, bu cifat juda ozgʻin odamga nicbatan bekorga koʻchmagan. Haqiqatan ham, don qobigʻi uchidagi qilcha nihoyatda ingichka boʻladi. Bu cifatning odamga koʻchishi uchun kuzatuvlar, qancha tarixlar kerak boʻlgan.

“O‘shakchi” ushoqchimi? “O‘shakchi” degan so‘z menga bolalik yillarimdan tanish. Qishlog‘imizda chaqimchi, mayda gap, gap tashuvchi odamlarni “o‘shakchi” deyishardi. Lekin chaqimchilarni nega “o‘shakchi” deyishlarini hech tushunolmaganman. Hozir ham janubiy viloyatlarimizda bu so‘z ko‘p qo‘llanadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni” indeksida “ushoq” so‘ziga shunday izoh beriladi: Ushaq I. — kichik, mayda. Ushaq II. — chaqimchilik, malomat. Darhaqiqat, chaqimchilik ham mayda gaplar bilan mashg‘ul bo‘lishdir. Chaqimchilik maydakashlik, degan ma’noda “ushaq” so‘zi bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin.

“Yuksak”dagi pat. Qizig‘i shundaki, “yuksak” so‘zidagi “yuk” so‘zi “qush pati”, degan ma’noni anglatar ekan. Koshg‘ariy bu so‘zni shunday izohlagan. Ayni shu “yuk” so‘ziga “-sak” qo‘shimchasi qo‘shilib, “yuksak” so‘zi hosil bo‘lgan. G‘alati-ya... Bittagina so‘zning mantiqiy ildizlari ham qancha kechmishlarga borib taqaladi.

Beshik kertti. Yaqin o‘tmishgacha bizda beshik kertti, degan udum bo‘lgan. Bu udumga ko‘ra qiz bolani chaqaloqligidayoq kimgadir unashtirib qo‘yishgan. Ba’zi viloyatlarimizda bu udum “qulog‘ini tishlatti”, deb ataladi. Xo‘sh, “beshik kertti” iborasidagi “kertti” so‘zining ma’nosi nima? Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra “kertik” so‘zi belgi degan mazmunda keladi. “Kertti” esa, “kesilgan, o‘yiq” deb izohlangan. Umuman, bu ibora “beshigida belgili qildi”, degan ma’noni anglatadi.

Kaftda avaylamoq. Ayamoq. Tilimizda “avaylamoq” ma’nisini anglatgan “ayadi”, degan fe’l bor. Bu fe’lning o‘zagi “aya” so‘zidir. Shuningdek, qadimdan tilimizda “kaft” ma’nosini bildirgan “oya”, “aya” so‘zlari bor. Bir qarashda avaylash ma’nosidagi “aya” fe’li bilan “kaft” ma’nosidagi “aya” so‘zi shaklan bir xil-u, mazmunan har xilday tuyuladi. Lekin qo‘lda ko‘tarib ardoqlashni qadimda “qo‘limning oynasida tutdim”, deb ham ifodalashgan. Avaylash bilan kaftda tutish mazmunan bir-biriga yaqin. Shundan kelib chiqib, “kaft” ma’nisidagi “aya” so‘zi bilan “avayla” ma’nosidagi “aya” so‘zi tub ildizi bir xil, deb faraz qilish mumkin.

Shuningdek, “aya” soʻzini “taqdirlamoq” “ato qilmoq”, “taʼriflamoq” kabi maʼnolari ham borligi manbalarda taʼkidlangan.

Tegirmonning tegrasi. Tilimizdagi gʻallani un, sholini oqlab guruch qilib beradigan qurilma nomini anglatgan “tegirmon” soʻzi “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da izohlanishicha, asli “aynan” maʼnosidagi “tegir” soʻzidan kelib chiqqan. Bu qadimgi soʻz hozir ham tilimizda “aylana” mazmunidagi “tegra” shaklida saqlanib qolgan. “Tevarak” soʻzi ham shundan kelib chiqqan.

Eshqobil Shukurning bunday tahlillari bugun tobora unutilib borayotgan noyob soʻzlarimizning yana istemolga qaytishiga yordam beradi. Qolaversa, inson oʻzi qoʻllayotgan soʻzning maʼnosini, uning qanday kelib chiqqanini bilsa, ifoda qilmoqchi boʻlgan fikrining taʼsir kuchi ortadi. Har bir oʻzbek tilimizdagi soʻzlarning tarixi bilan qiziqishi, uning evolyutsiyasini bilishi kerak, oʻzidan keyingi avlodga til haqidagi muhim maʼlumotlarni yetkazib bermasa, insonning yashashdan maqsadi nima boʻladi? Shu maʼnoda E. Shukurning mazkur faoliyati alohida oʻrganishni, ilmiy tekshirib koʻrishni taqozo qiladi.

2.2 Eshqobil Shukur sheʼriyatida soʻz ijodkorligi. Eshqobil Shukur isteʼdodli shoir sifatida nafaqat yangi sheʼrlar, balki yangi soʻzlar ham kashf qilishini keng kitobxon ommasi, shoirning muxlislari yaxshi biladi.

Oʻzbek tilida yangi soʻz yasashning 5 turi mavjud boʻlib, shulardan eng faoli morfologik va sintaktik usullardir. E. Begmatov toʻgʻri taʼkidlaganidek: “Soʻzning yangiligi yoki eskiligi soʻzning tilda paydo boʻlish davriga koʻradir. Soʻzning qoʻllanuvchanligi yoki eskirganligi leksemalarning funksional aktivligi yoki passivligiga koʻradir”. Shu maʼnoda har bir soʻzni uning paydo boʻlgan vaqtiga nisbatan printsiptial ravishda neologizm deb atash mumkin. Bunda faqat u yoki bu soʻz tilda qachon paydo boʻlganligini aniqlash kerak. “Tilda yangi soʻzlarni yaratish tilning tarixiy rivojlanishi, uning vaqt jihatidan oldinga harakat qilishi mahsulidir. Shuning uchun tildagi barcha yangi hosil boʻlgan soʻzlarni faqat sinxron tarzda emas, balki diaxron tarzda, yaʼni til rivojlanishining muayyan

davrida yuzaga kelganligi nuqtayi nazaridan o'rganish mumkin". Bundan shu narsa kelib chiqadiki, yangi so'z tushunchasi diaxronidir. Yangi so'zlar xotirlanmaydigan xossagagina emas, balki qo'llanish jihatidan bir martalik va sinxron-diaxron qorishqlik xossasiga ham egadir. Demak, ular tarixiy vaqtga nisbatan taalluqsizdirlar. Shuning uchun bunday so'zlar neologizm deb atala olmaydi. Shunday qilib, yangi so'zni ta'riflashda vaqt mezonini zarur, lekin yuqorida ko'rsatilganidek, u absolyut emas, unga nisbiylik jihatidan qaraladi. Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, yangi so'zga shunday ta'rif berish mumkin: Yangi so'z tilda o'z tarixiy hayotining dastlabki bosqichini o'tayotgan, yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zdir[Mirtojiyev,3]. Badiiy asarlar tili o'rganilganda ularda yangi so'zlarning qo'llanilishiga alohida e'tibor qilinmaydi.

Eshqobil Shukur she'rlarida o'ziga xos jihatlar anchagina. Avvalo, ularda milliy ruh sezilib turadi. Shoir o'z she'rlarida mazmunni ro'yobga chiqarish uchun sintaktik kombinatsiyalardan juda ustalik bilan foydalanadi. Hatto yangi so'zlar hosil qilishdan ham cho'chimaydi. Xususan, so'z yasovchi qo'shimchalar orqali morfologik usulda bir qator so'zlar hosil qilganini tahlillar jarayonida uchratish mumkin. Fikrlarni dalillash uchun shoirning "Hamal ayvoni" to'plamidan ayrim she'rlarini tahlil qilib ko'rish mumkin. Masalan, shoir -iston qo'shimchasini mo'zora so'ziga qo'shib yangi so'z yasaydi. Quyidagi bandda esa, shoir porillaydi fe'lini keltirgan, porlamoq fe'li bizga ma'lum, ammo mazkur grammatik shakl har holda kam uchraydi:

Qizning marmar tanida

Porillaydi ol durlar.

Ming tola sochga sho'ng'ib,

Chars-churs sinadi nurlar. [Hamal ayvoni,27.]

Eshqobil Shukur o'zbek tiliga xos bo'lgan ko'plab so'zlarni iste'molga olib kirishga urunganini she'rlarida ko'rish mumkin.

Bahaybat **o‘yiq** bor ko‘kraklarida,
Zamonlarning dahshatlari dastidan.
Bir Vatanni tutib kipriklarida,
Bir xalq chiqib kelar yerning ostidan.

O‘yiq so‘zi o‘zbek tilida asosan, o‘tgan zamon sifatdoshi bilan hosil qilingan fe‘l orqali ifodalanadi. Masalan, o‘yilgan, so‘yilgan... -oy qo‘shimchasi atoqli otlarga qo‘yilib kelishi hammaga ma‘lum, asosan, xotin-qizlarning nomlariga qo‘shilib kelib turli ekspressiv-uslubiy ma‘nolarni ifodalshga xizmat qiladi. Eshqobil Shukur esa, uni turdosh otlarga nisbatan ham qo‘llagani yangicha yondashuvdir:

Sochlari sumbul-sumbul...Sochlari...

Kelbat kerib kelayotgan **kelinoy**,

Shoir chanqovuz haqidagi bir she‘rida “charnamoq” fe‘lini ham qo‘llaganiga guvoh bo‘lish mumkin: // **charnagan*** o‘zim mening, Qalbning yorug‘ qa‘ridan sinmas til topib oldim.//

O‘zbek tilida qirqilmoq va kesilmoq fe‘llari nihoyatda faol qo‘llaniladi, biroq Eshqobil Shukr o‘z she‘rlarida ko‘p marotaba qiyilmoq fe‘lini qo‘llagan:

Tilim tiyildi mening,
so‘zim **qiyildi** mening.

E. Shukurning o‘ziga xos so‘z yaratish mahorati borligini uning quyidagi juda ta’sirli bo‘lgan, milliy an’analarimizni o‘zida mujassam quyidagi misralari orqali ham bilish mumkin. Mazkur she‘rda muallif kompozitsiya usuli bilan jozibador so‘zlar yasay olgan:

Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar,
Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar.

Yoki *Koshingga **emranib** keldim, o‘zbekim, Shoirning ketdimi mendan norizo. Yaxshi bo‘larmidi xalqim, o‘zligin Shoirning qalbidan topsa*

podsho. [Boyqaro, 19.] *Emranib* fe'li ham bugungi kunda faol muloqotda uchramaydi, ammo shoir tomonidan qo'llanilayotgani misralarning o'ziga xos jozibasini ta'minlab beradi.

Quyidagi misralarda ham beka so'ziga qo'shilayotgan -siz qo'shimchasi odatiy emasdek: // *Mening dunyolarim qancha betartib, Sening dunyolaring shuncha sarishta. **Bekasiz** samoga bergali tartib Ortingdan kelmoqda qirq ming farishta*//.

Mazkur misralarda shoir tomonidan she'riy nutqlarda ko'proq uchraydigan so'zlar qo'llanilgan: // **Ko'pchigan** tuproqda **qaqrar** saraton, Bahor tebratadi **rangpar** havoni. Olti oy oldinda **qaqshar qahraton**, Kuzgacha omon elt olti daryoni.// Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yasalish asosi, hosilalarning ayrimlari tarixiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

//**Uvuqlarni** – ko'k suyaklarni Tishlab olib, so'ng ko'char shamol. Kaftda ezib iyaklarini Tepaliklar suradi xayol.// Misralarida uvuq so'zi ham juda kam qo'llanadigan, aksariyat o'quvchilar uchun yangi so'z hisoblanadi.

Ba'zi so'zlarning she'riy misrlarda morfologik jihatdan o'zgarib qo'llanilishini ham ko'rish mumkin, masalan, erinchoq so'zi bugungi kunda ham faol hisoblanib uning mazkur misrada boshqacha shaklda kelishi, hududiy talaffuz muhitiga bog'liq bo'lishi mumkin. // *Tongda tandirini yoqar kelinchak, Suprada yetilar botmon xamiri. Molxonada «mo'»lab kuyar **erinchak** Yelini tirsillab ketgan sigiri*//

O'zbek tilida -li va -lik qo'shimchalarning qo'llanilishida chalkashliklar ko'zga tashlanadi: // *Eri o'ldi Bibizilolning... Kelinchaklik davri o'ldi, **Belanchaklik** uylari o'ldi. Kun — motam. Tun — motam*// Belanchaklik emas, aslida belanchakli uylar bo'lganida uslubiy jihatdan to'g'rib o'lardi.

Ko'pincha -dosh qo'shimchasi yurt, vatan, hatto, millat so'zlariga nisbatan qulay va faol qo'llanib keladi, biroq shoir tomonidan uning el so'ziga ham qo'shilgani yangi vaziyatni yuzaga keltirmoqda: // **Eldoshlarim**... Jon desa jon

bergan, **eldoshlarim**, Aylanayin bergan jonlaringizdan. Menga Vatan bergan, eldoshlarim, Aylanay bergan Vatanlaringizdan.//

E.Shukrning o‘ziga xos mahorati shundaki, u xalqona ohanglarni ifodalash uchun asosan, o‘zbekcha so‘zlardan foydalanadi. Shevaga xos so‘zlar ham uchraydi: //Sho‘r boshing yopinar ko‘k bulut. Tegrangda shamollar tizilar. Havoda suzadi ko‘k tobut, Ko‘m-ko‘k kuy ko‘klardan uzilar. **Ko‘kaylari** kesilgan Ayol, Bovri yurtidan uzilgan Ayol, Bir yurt yolboradi: qo-ol!//

Sifat yasovchi -li qo‘shimchasi quyidagi misralarda maqsadli, atayin qo‘lanilgandek taassurot qoldiradi:

Davlatli begoyim, **erkli** begoyim,

Biza muruvvat qil, **ko‘rkli** begoyim.

Xudo tumor taqib boshing boylamish,

Bandaga darchasi **berkli** begoyim. [Hamal ayvoni,54.]

Xulosa qilib aytganda, Eshqobil Shukr ijodida ko‘plab so‘zlarning yangi ma’noda, yangi grammatik shaklda qo‘llanilishi she’rning xalqchilligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bunday so‘zlar o‘ziga xos tarzda, yangitdan va ko‘p holda ta’sirchan ifodalash ehtiyoji bilan yaratiladi. Bunda so‘zlovchidan ma’lum topqirlik, lisoniy mahorat talab qilinadi. Shoir tomonidan qo‘llangan so‘zlar qanday nutq tipida yuzaga kelishiga qarab, o‘sha nutq talab qiluvchi vazifani bajaradi va bu orqali nutqning ma’noviy nominativ, kommunikativ ehtiyojini qondiradi.

Bob bo‘yicha xulosa

E. Shukurning o‘zbek tiliga xos bo‘lgan nodir so‘zlar tahliliga bag‘ishlangan turkum mulohazalari, milliy mentalitetimizni ifodalaydigan, konsept darajasidagi so‘zlar etimologiyasiga doir qarashlari, she’rlarida qo‘llangan so‘zlarning ifodalari o‘rganilib quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Eshqobil Shukurning soʻzlar etimologiyasiga doir izlanishlari ham uning sheʼriyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, bu esa oʻquvchilarga misra mazmunini teran anglashga, soʻzni his qilishga oʻrgatadi.
2. Oʻzbek tili oʻzining boy ichki yasaliş tizimiga egadir. Tilimizning boyishi ichki maʼno taraqqiyoti bilan ham bogʻliq. Jumladan, ijodkorlar tomonidan til birliklari yangi-yangi maʼnolarda qoʻllanilmoqda. Neologizmlar va okkozionalizmlar masalasi ham aynan shoir yoki yozuvchilarning tilimizga qoʻshayotgan yangidan-yangi ifodalari bilan bogʻliq.
3. Eshqobil Shukur nafaqat oʻz sherlari bilan, balki til taraqqiyoti, soʻz tarixi, etimologiyasi bilan bogʻliq muammolarga, nutqimizdagi chalkash qoʻllanilayotga soʻzlarga oʻz munosabatini ham bildirgan. Bu yondashuvlarni asosli deb hisoblash mumkin, chunki koʻpchilik izohlar shunchaki aytilmagan, ishonchli manbalardan yetarli asoslar ham keltirilgan.

III BOB. ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATI LEKSIKASINI O'QITISH

3.1. Eshqobil Shukur she'rlarining leksik tahlili. Leksikologiya (yunoncha Lexis - so'z, logos — fan, ta'limot) so'z haqidagi fan bo'lib (uni o'zbek tilida so'zshunoslik deb ham atashadi), muayyan tilda ishlatiladigan barcha so'zlar shu tilning lug'at boyligini tashkil qiladi. Tilshunoslikning bu bo'limi so'z va uning ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shu sababli leksikologiya o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatlarga ega.

Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'pma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi – paronim so'zlar, umumxalq ko'p ishlatadigan va kam ishlatadigan so'zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo'lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so'zlar, istilohlar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi. Talabalar nutiqning go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligi asosan ularning lug'at boyligi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflardan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarigacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'ati kengaytirilib boriladi. Bunda bir qancha xususiyatlar e'tiborga olinadi. Xususan: — so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar; — so'zlarning amaliyotda qo'llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo'llanishi; — so'z ma'nosining to'la tushunilishi, o'rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi. So'zning o'z va ko'chma ma'nosini o'rganish usullari mavzuini o'rganish jarayonini tahlil qilib ko'ramiz. Topshiriq: quyidagi gaplarni o'qing. o'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni ajrating.

Suv ustida, suvlar ustida

Yuraklarim chisirlaydi-yey,

Ishq dastidan, hijron dastidan

Suyaklarim qisirlaydi-yey.

O‘t ustida, o‘tlar ustida
Ko‘z yoshlarim daryo bo‘ldi-yey,
Ishq qasdida, hijron qasdida
Bardoshlarim ado bo‘ldi-yey.

Tosh ustida, toshlar ustida
Ko‘nglim erir oy kabi ma’yus.
Ishq faslida, xijron faslida
Yig‘la, Bahor, mening ismim – Kuz.

Yo‘l ustida, yo‘llar ustida
Oyoqlarim yurak bo‘ldi-yey,
Ishq kasridan, hijron kasridan
Umrim faqat tilak bo‘ldi-yey. (Eshqobil Shukur)

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi gul, yulduz so‘zlarining ma’nolarini aniqlang.

Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi yulduz, gul so‘zlari qiz, farzand ma’nosini beradigan ko‘china ma’noda qo‘llanilgan. 2-ustundagi mazkur so‘zlar esa o‘z ma’nosida qo‘llangan. Demak, bir xil shakldagi so‘zlar ikkinchi tur ma’noda ham qo‘llaniladi va mazkur holatni so‘zning ko‘chma ma’nosi deb yuritiladi.

2-topshiriq. Gapdagi gul va yulduz so‘zlarining uyadoshlarini toping.

Namuna: gul – atirgul, chinnigul, gulsafsar, bo‘tako‘z; gul – qiz, farzand, ona, ayol, singil; yulduz – sayyora, yer, Oy, Quyosh, Mars, Yupiter, Neptun; yulduz – qiz, go‘zal qiz, tarbiyali, aqlli, ilmi qiz... Bu kabi o‘yin-topshiriqlar o‘quvchilardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, so‘z boyligini oshirish va boyitishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. “Izchil kurs”ni o‘rganishda o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar orasidagi ma’noviy munosabatlar, ma’no guruhlari (uyadosh, ma’nodosh, zid ma’noli so‘zlar kabi)ning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi ustida ishlash, til sathlarini bog‘lab o‘rganish orqali

lug‘at xazinasini oshirish va boyitishga imkon beradi. Ona tili mashg‘ulotlarida berilgan mashqlardagi so‘zlaming o‘z va ko‘chma ma’nolari ustida ishlanadi.

Yurakni uyg‘otib yuboring...

Tinglayin yulduzlar qo‘ng‘irog‘ini,

Mayin qora o‘tni kechib o‘tarkan,

Shamollarning nafis titrog‘i ila

Yurakni uyg‘otib yuboring...

Qora havolarda oydin xo‘rsiniq,

Suygum kelayotir kuyib-kuyib men.

Uyqular oqadi suv kabi tiniq,

Tushlarni tomosha qilay to‘yib men. (Eshqobil Shukur)

Ushbu satrlarda yasama go‘zallik yo‘q, tun bilan kunning o‘zaro almashish daqiqalariga xos belgilarni payqab, tuyib, ko‘rib, kun botishi bilan salqin tushishini nozik badiiy bo‘yoqlarda, ko‘chma ma’noda tasvirlanadi: “Yurakni uyg‘otib yuboring” kabi. Matn ustida ishlash mashqlaridan so‘ng o‘quvchilarda mustaqil fikrlash malakasini hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Hayvon, qush va o‘simlik nomlari ro‘yxatini tuzing. Har bir so‘zni o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llab, so‘z birikmasi va gaplar hosil qiling.

Namuna:

1-ish. Burgut, anion, qaldirgoch, sher, lochin, ohu, kiyik...

2-ish. Burgutning qanoti, arslon na’rasi, qaldirg‘ochlar qoshig‘i, hurkak kiyik, sherning yuragi...

3-ish. Bizning shirin uyqumizni arslonlarning na’rasi buzdi. Burgutning qanotlari parvoz paytida salkam ikki metrga boradi. Arslon tongda ko‘zini ochdi. Uni qaldirgochlar galasining vijir-vijiri bezovta qilgan edi.

2-topshiriq. Hosil qilingan so‘zlami ko‘chma ma’noda qo‘llab, gap tuzing.

1-ish.

arslon

kiyik

sher

qaldirg'och

Bobur lochin-dek bola

Shoira ohu-dek qiz

qarchig'ay

gul

burgut

to'ti

2-ish. Gaplarni kengaytiring.

Namuna: Bobur — qarchig'aydek yigit. Shoira – ohu ko'zli, kiyikdek chaqqon qiz; Arslon va sherlar o'rmon va tog'larda yashaydilar. Lochinning ko'zlari nihoyatda o'tkir bo'ladi. O'quvchilar hayvon va qush nomlari orqali insonga xos bo'lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni tavsiflash bilan o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so'z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar. Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o'simlik nomlari, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or nomlari kabi uyadosh so'zlardan lug'atlar tuzish; ulami o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar qurish, matn yaratish, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilganda qanday ma'noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, bolaning ijobiy tafakkur doirasi kengayadi, so'zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samara beradi. O'quvchilar e'tiborini so'z ma'nolarining doimiy yashash joyi – nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zamriydir.

Tilimizda ayrim so'zlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra, ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlariga bo'linadi. So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali. Shunga erishish lozimki, o'quvchi yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmasin. Uning ma'nosini

anglashga, zarur paytlarda o'z nutqida qo'llashga harakat qiladigan bo'lsin. Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) ustida ishlash usullari Hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimiya hodisasi va uning nutqiy amaliyotini o'rganish uchun maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim amaliyotida xilma-xil shakl va usullar mavjud. Ularning orasida eng keng tarqalganlaridan biri sinonim so'zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o'quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O'quvchining dunyoqarashi, tasavur doirasi, tayyorgaiik darajasiga qarab, bu qatorlar ancha mukammal yoki ixcham bo'lishi mumkin. O'quvchilar sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so'zlarni o'z lug'at boyliklari sirasiga kiritadilar. Shu bilan birga, hozirgacha nisbatan kam ishlatiladigan so'zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi. Bu xildagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun berilgan so'zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so'zlarni ajratib yozish; sinonim so'zlar asosida saylanma diktant o'tkazish; har bir sinonim so'zning ma'no nozikliklarini izohlash kabi mashqlar ajarilishi mumkin. Eng oxirgi turkumdagi vazifalar talabalarning yangi so'zlarni o'rganishlari va o'zlashtirishlarida eng ko'p darajada yordam beradi. Bu jarayondagi mashqlarning turlari juda rang-barang bo'lishi mumkin. Ular orasida sinonimik qatordagi barcha so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni topish asosiy o'rin tutadi. Masalan, jahl, achchiq, g'azab, qahr, zarda so'zlarini ko'raylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma'no nojo'ya xatti-harakat yoki hodisaga nisbatan qo'zg'algan kuchli darajadagi his-tuyg'u va uning ifodasidir. Mazkur so'zning ma'nolarini aniqlashda "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalanish mumkin:

achchiq – qahr, jahl; zarda.

zarda – ko'chma. jahl, g'azab, zug'um.

qahr – qattiq achchiqlanish holati; g'azab.

g'azab – kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, qahr, jahl.

Keyingi bosqichda shu qatordan barcha so'zlar uchun umumiy bo'lganlarini (jahl, achchiq), ulardan belgining darajasi nisbatan kuchli va yuqori bo'lganlarini (g'azab, qahr) ajratish mumkin bo'ladi. Ushbu qatordagi so'zlarni ma'noning

kuchayib borishi yoki pasayib borishi yoʻnalishida joylashtirib chiqish ham topshiriq sifatida yaxshi samara beradi. Bunda ham oʻquvchilar soʻz maʼnolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur soʻzlarning ular ongida mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi.

Sinonimlar ustidagi ish jarayonida oʻquvchilar soʻzlarning faol yoki passiv darajadagi isteʼmolini (“barvasta” oddiy nutqda juda kam ishlatiladi, “gavdali” esa juda faol qoʻllanadi), ularning muayyan yoʻnalishdagi chegaralanishini (“norgʻul” asosan yosh, yigit kishilargagina nisbatan qoʻllanadi), ayrim hollarda ularning emotsional boʻyoqqa ega boʻlishini (“barzangi” asosan, salbiy maʼno tashiydi) anglab yetishadi. Bu sinonimlarni nutq jarayonida qoʻllash orqali ham oʻquvchilarning sinonim soʻzlarga bogʻliq bilim, tushuncha, koʻnikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari bor. Ular nutq jarayonida bir soʻzning oʻrniga boshqasini qoʻllab boʻlmasligini, bordi-yu qoʻllanganda ham u yerdagi maʼnoning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, koʻrishadi. Sinonimlar ustidagi ishlar oʻquvchilar nutq boyligini oshiradi, ularning bitta maʼnoni ifodalashdagi ortiqcha takroriylikdan qutulishlariga imkon beradi, fikrni nisbatan aniq, loʻnda va tiniq ifodalashga oʻrgatadi. Shuning uchun ham bu jarayonda badiiy adabiyotlarga koʻproq murojaat etish, oʻquvchilarning bevosita izohli lugʻatlar ustida ishlashlarini ragʻbatlantirish maqsadga muvofiq boʻladi. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlariga koʻra turlari ustida ishlashda maʼnodosh soʻzlar guruhlarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maʼnodosh soʻzlar – tilimizning leksik boyligi. Undan qancha oʻrinli foydalanilsa, fikmi ravon, goʻzal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, soʻzdan toʻgʻri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

Ogʻzaki hamda yozma nutqni maʼnodosh soʻzlar bilan boyitishda soʻzlarni quyidagi leksik maʼno guruhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Istamoq, kengashmoq, soʻramoq, salomlashmoq, xohlamoq, maslahatlashmoq, flkrlashmoq, orzu qilmoq, sogʻinmoq, koʻrishmoq, omonlashmoq, ahdlashmoq, salom-alik qilmoq kabi maʼnodosh soʻzlarni leksik maʼno guruhlariga ajrating:

- istamoq, xohlamq, orzu qilmoq, sog‘inmoq;
- maslahatlashmoq, kengashmoq, fikrlashmoq, ahdlashmoq;
- salomlashmoq, so‘rashmoq, ko‘rishmoq, omonlashmoq, salom-alik qilmoq...

2-topshiriq. Ma‘nodosh so‘zlarni ma‘lum bir belgining oshib yoki kamayib borishi (so‘zning ma‘no darajalari) bo‘yicha tartib bilan joylashtiring:

- hujra, xona, kulba, uy, koshona, saroy, qasr, qal‘a;
- tuzuk, durust, yaxshi, ajoyib, a‘lo...

Yoshlarni mustaqil fikrlashga, leksik ma‘no belgilarini farqlashga yo‘naltiradigan bunday topshiriqlarni bajarish gapda so‘zning o‘rnini aniqlashni osonlashtiradi, undan sharoitga mos ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

3-topshiriq. Berilgan so‘zlarga leksik ma‘nosi yaqin so‘zlardan qator hosil qiling: gulzor, gumon, sezgi... Ularni ma‘no darajalanishiga qarab joylashtiring: gulzor, gulbog‘, guliston, gulshan, chaman, chamanzor, bog‘-u bo‘ston... Har bir so‘zga namunadagidek qatorlar hosil qilingach, so‘zlarning oshib borayotgan ma‘no ko‘lami quyidagicha tasnif etiladi:

- “gulzor” so‘zining ma‘no darajasi gulbog‘ so‘zining ma‘nosidan (ko‘lami) torroq, chunki “gulzor” deganda, gul ekilgan joy ma‘nosi anglashilsa, gulbog‘ deganda, gul va manzarali butalar ekilgan joy tushuniladi.
“Gulbog‘” so‘zida ma‘no kengayishi hodisasi ko‘rinadi;
- “guliston” so‘zining ma‘no ko‘lami gulzor va gulbog‘dan ko‘ra kengroq, ya‘ni unda gullar vatani (diyori, mamlakati) ma‘nosi bor. Lekin mazkur so‘z umumiste‘moldagi so‘z bo‘lib, “guliston”da “chaman” so‘zida anglashiladigan badiiy ko‘tarinkilik, bo‘yoqdorlik ko‘rinmaydi. Shuning uchun guliston so‘zi gulshan, chaman so‘zlaridan pastroqda turadi.

4-topshiriq. Gapdagi muayyan bir so‘zni uning ma‘nodoshi bilan almashtiring. Namuna: O‘zbekistonimiz (Respublikamiz, yurtimiz, o‘lkamiz, diyorimiz, mamlakatimiz...) kun sayin chiroyli (ko‘rkam, obod, go‘zal, suluv...) bo‘lib bormoqda.

5-topshiriq. Berilgan gap yoki matndagi ajratilgan soʻzlarga maʼnodosh, uyadosh, zid maʼnoli soʻzlar topib, ularni oʻzgartiring.

Otang seni yoʻqlab Toshkentga keldi,

Endi uygʻon, koʻzingni och, tosh.

Yetmaydimi senga besh yillik oʻlim,

Otang keltiribdi bir xalta koʻz yosh.

Unga yuzingni yuv, yuragingni yuv,

Qara, bosh-odogʻing qop-qora qurum.

Otang yetmish yilni sudrab kelibdi,

Seni qoʻyvormaydi besh yillik oʻlim. (Eshqobil Shukr)

Namuna: hamrohing, qalbing, riyodan, botiniy nur...

1.Maʼnodoshlar — hamrohing, yaqining, sheriging, yoʻldoshing, mahraming...

2. Uyadoshlar: hamrohing — sheriging, qoʻshning, hamdarding, homiying, tanishing, ulfating...

3. Zid maʼno: hamrohing — raqibing, dushmaning, yoving...

4. Maʼnodoshlar: qalbing, koʻngling, yuraging...

Matn ustida ishlash: Matndan maʼnodosh soʻzlarni ajrating, guruhlang, ularga zid maʼnoli soʻzlar tanlang. Topgan soʻzlaringizdan foydalanib, soʻz birikmalari hosil qiling.

...Kulgi-yu tabassum Ollohning insonga bergan betakror marhamatidir-ki, bu xislat na hayvonot dunyosida, na parranda-yu darrandalarda uchraydi. Inson qiyofasidagi shodmonlik belgisi faqat insongagina xos. Kulgi-yu tabassum bebaho gavhardir, inson qalbining yuzdagi inʼikosidir, yurak sogʻinchlarini izhor etib turadi...

1-ish.

kulgu — yigʻi

marhamat — malomat, laʼnat

tabassum - jahl

xislat - feʼl, badfeʼl

xursandlik — xafalik

fazilat — xulq-atvor

shodlik — g'am

ne'mat — falokat, balo-qazo

O'quvchilarning bu sohadagi bilim va malakalarini yanada kengaytirish uchun quyidagi o'quv – topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- Matndagi yangi yoki sizga tanish bo'lmagan so'zni belgilang, uning ma'nosini izohlang;

- matnda ajratilgan o'z va ko'chma ma'nodagi so'zlarning uyadosh va ma'nodoshlarini toping;

- ma'nodosh so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan

ma'noni belgilang;

- ma'nodosh so'zlarning ma'no nozikliklarini aniqlang;

- ulardan foydalanib, matn yarating. Ma'nodosh (sinonim) so'zlar qatorini tuzing.

3.2 Leksika o'qitish metodikasi. Bunda darslikdagi muayyan mashqda berilgan so'zga o'quvchilar ma'nodosh (sinonim) so'z izlashadi. Bunday mashqlar uchun o'quv materialini sifatida adabiyot darsligiga murojaat etish mumkin. Ma'nodosh so'zlarni o'rganish yuzasidan bajariladigan ijodiy-nazorat ishlarining yana bir turi saylanma diktant tarzida o'tkazilishi mumkin. Bunda matn o'qiladi, undan faqat (sinonim) ma'nodosh so'zlarga ko'chirib yoziladi, agar o'qituvchi lozim topsa, eshitib yozilgan ma'nodoshlarga shakldoshlar, zid ma'noli so'zlar, uyadoshlar tanlash, ular vositasida so'z birikmalar hosil qilishga qaratilgan qo'shimcha mustaqil ishlardan biri topshirilishi mumkin. Ma'nodosh so'zlar ustida ishlashning shakli va usullari nihoyatda xilma-xil. Ularning eng keng tarqalganlarini talabalarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, nazorat testlari tuzish va ularni guruh oldida himoya qilish o'ta foydali o'quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Bunday ijodiy-amaliy ishlar, og'zaki nutqni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi. Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash O'quvchilar so'z boyligini oshirishda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash ham katta

ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma-xil:

- Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash: katta - ..., xursand - ... , tez - ... , xunuk - ..., oq - ... , olmoq - ... , kelmoq -... kabi.

- zid ma'noli so'zlarning ma'nosini sharhlash;

- kecha-kunduz, oq-qora, yosh-qari, katta-kichik kabi juftliklar ma'nosini aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanish o'quvchilar so'z boyligini oshirishga samarali yordam beradi.

Nutqni zid ma'noli so'zlar bilan boyitishda xalq maqollarining o'ziga xos o'rni, vazifasi bor. O'quvchilar "O'zbek xalq maqollari", "Aql aqldan quvvat oladi", "So'z ko'rki – maqol" kitoblaridan zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan maqollarni ajratadilar va ma'nosini sharhlaydilar.

Masalan: "Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat", "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib", "Yaxshilardan hargiz chiqmas yomonlik, asli yomon bo'lsa, kutma omonlik", "Yomonga bosh bo'lguncha, yaxshiga yo'ldosh bo'l", "Yomondan qoch, yaxshiga quloq och" kabi maqollar ma'nosini sharhlash, muayyan bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardandir. Berilgan ma'nodoshlarga zid munosabatda bo'ladigan qator hosil qilish ham so'z boyligini oshirish, gap tuzish malakasini mustahkamlashda, nutqda gap ma'nodoshligi hodisalaridan foydalanishda yaxshi samara beradi.

Namuna: Bu ertakni barcha o'qishi kerak. - Bu ertakni katta- kichik o'qishi kerak. Turmush g'avg'olaridan xabardor — Turmushning issiq-sovug'ini bilgan kabi.

Zid ma'noli so'zlar ko'proq sifat va ravish so'z turkumlaridan hosil bo'ladi. Ular: so'z birikmasi tarkibida: baland bino — past bino; oq marmar – qora marmar kabi; butun bir birikmada: baland bo'yli, semiz, keksa ayol — past bo'yli, oriq, yosh ayol; qalin muqovali (jildli) katta kitob — yupqa muqovali (jildli) kichik kitob kabi; ba'zi birikmada zid ma'noga ega bo'lgan so'z boshqa birikmada aynan shu ma'noni bildirmasligi ham mumkin. Solishtiring: qalin daftar — yupqa daftar, ammo qalin soch — yupqa soch emas, siyrak soch; issiq havo — salqin havo,

ammo issiq suv — salqin ichimlik emas, sovuq yo muzdek ichimlik kabi; so‘z zid ma’noli juftiga ega bo‘lmaganda, yasovchi qo‘shimchani qo‘shish bilan zid ma’noli tushunchalami ifodalash usulidan foydalanish orqali so‘z boyligini oshirish mumkin: ma’noli-ma’nosiz, bema’ni- bama’ni kabi. Zid ma’noli so‘zlarning ma’nosi, tuzilishini bilish — narsa va hodisalar orasidagi farqni to‘g‘ri ajrata olish imkonini beradi. So‘zning shakl va ma’nolarini belgilashda ayni bir so‘zning ma’nodoshlari va zid ma’nolilarini kontekstda qiyoslash ham talabada ijodiy tafakkurni rivojlantirishga katta yordam beradi.

Sovuq va issiq so‘zlari ham o‘ziga xos shakldoshlari va zid ma’nolilariga ega: issiq havo – sovuq havo, qaynoq suv – muzdek suv, qaynoq hayot – sokin hayot, tinch mamlakat – notinch mamlakat, xush xabar – noxush xabar ... Shoir va yozuvchilar voqelikni, narsa-hodisalarning xususiyatlari, sifatini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlashda zid ma’noli so‘zlardan unumli foydalanadilar.

Nazmiy matn ustida ishlash uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan nazmiy matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini toping. Ular bilan so‘z birikmalari hosil qiling.

2-topshiriq. Matndagi zid ma’noli so‘zlarning ma’nosini sharhlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni o‘z ma’nosida qo‘llab, gaplar tuzing. Kichik matn yarating.

Ko‘rinadiki, zid ma’noli so‘zlarni so‘zlovchi nutqiga kontrast — ekspressiv bo‘yoq beruvchi vosita sifatida o‘rganish o‘zbek tili o‘qitish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir til lug‘atida tovush (harf)lar tarkibi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma’nosi har xil so‘zlar – shakldoshlar mavjud. Ular ma’nolariga ko‘ra turli buyum, voqea-hodisa, tushunchalarni anglatadi. Ko‘pincha, tovush tarkibiga ko‘ra, shakldoshlar bilan ko‘pma’noli so‘zlarni ajrata olmaslik hollari uchraydi.

Ayrim so‘zlar o‘zlarining asl ma’nolaridan boshqa ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Chunonchi, inson organizmidagi a‘zo nomlari: bosh, ko‘z, qosh, yuz, burun, ogiz, til, qo‘l, oyoq, quloq.. v.h. lar o‘zining asosiy leksik ma’nosidan tashqari ko‘chma

ma'nolarda ham ishlatiladi; ularda ichki ma'no "ip"lari saqlanadi. Masalan: bosh — organizmning bosh qismi — boshqaruvchi ma'nosini anglatadi va xuddi shu ta'na boshliq, boshqarma, bosh maqola, so'zboshi, yo'l boshi, suv boshi, ishboshi, bir bosh uzum kabi so'z birikmasi va qo'shma so'zlarda saqlanadi. Natijada lug'atimiz tarkibida shakli bir, ma'nosi turlicha so'zlar paydo bo'ladi. Shakldoshlik va ko'p ma'nolilik orasida farq ham mavjud: shakldoshlarda so'z ma'nolari bir-biriga o'xshamaydi. ko'k – o'simlik, rang, osmon, motam libosi; olma – daraxt, meva, buyruq fe'li kabi.

Keldi bahor, pishdi tut (meva),

Tut yesang, shunday ish tut (qil),

Chug'urchiq kelishin kut,

Bekorga sinmasin tut (daraxt).

Ushbu tuyuqda tut – meva, ish tut – ish qil – buyruq fe'li, tut – mevali daraxt turi ma'nolarida ishlatilgan va mazkur so'zlar nutqning ravon, qiziqarli, ta'sirli bo'lishiga xizmat qilgan.

— ko'p ma'noli so'zlarda so'z ma'nolari bir-biriga yaqin va aloqador bo'ladi: ko'z

— ko'rish a'zosi, uzukning ko'zi, derazaning ko'zi, taxtaning ko'zi, ishning ko'zi kabi;

shakldoshlarning uslubiy jihatdan nutqda ikki xil anglanishi tushuncha doirasini kengaytiradi: yuragiga o't tushdi – yuragi yondi. Nutqda bir o'rinda so'z, ikkinchisida so'z birikmasini qo'llash bilan so'z o'yini yuzaga kelishi shakldoshlarda ham mavjud:

Deydilarki, kungaboqar umr bo'yi kunga boqar. Matnda kungaboqar — ot, o'simlik, hamda ot+fe'l+ar birikmasi — kunga boqar - shakldoshlardir. Shakldoshlarning o'ziga xos xususiyatlaridan xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda poetik janr — tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. U mumtoz adabiyotda tajnis san'ati deb ataladi.

Ko'z yoshim tuproq ila gar qotila,(aralashsa, qorishsa)

Kelmagaymen javridin haqqo, tila, (tilga)

Hamzasi o'ltirdi-yu, ul bexabar,

Men agar o'lsam, ne kam ul qotila.(qotilga). (Lutfiy)

Shakldosh so'zlarni chuqur o'rganish talabalar so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini yuksaltirishda nozik qochirimlardan foydalanish, ijodiy tafakkur, mustaqil fikmi shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tovushlar soni va turi jihatidan teng bo'lmasa-da, talaffuzda o'xshash bo'lgan paronimlar shakldoshlarga ko'p jihatdan yaqin turadi. Paronimlarni shakli, ma'noviy hamda qo'llanishi doirasida quyidagi ma'no gumhlariga ajratish, o'rganish yaxshi natija beradi:

- bir-ikki, ba'zan undan ortiq tovushga ko'ra qisman farqlanuvchi shakldiy umumiylikning mavjudligi: tahlil-tahrir, matbuot – matlubot, taqlid – taxlit kabi;
- paronim juftliklar o'rtasidagi tovush almashtirish va ma'no munosabatining turli xilligi: arosat – asorat, arg'uvon – armug'on kabi;
- leksik ma'nolarida umumiy semantik qirralar mavjudligi: tanglay – manglay, kift – kaft, jayron – jayron kabi;
- leksik ma'nolari nisbatan yaqinligi, o'xshashligi: mahrum – marhum, mahram kabi;
- ma'lum tomonlari bilan ma'nodosh munosabatda bo'lish: bekinmoq – biqnmoq, nihon – pinhon, kurtak – murtak kabi;
- zidlanishdagi muayyan umumiylik hollari: e'tiroz-e'tirof, bema'ni – bama'ni, import – eksport kabi.

Paronimlarni nutqda xato qo'llash, juftliklarni qorishtirish so'z ma'nolarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi bunday xatoning oldini olish uchun mashg'ulot jarayonida shakli, ma'noviy bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan paronimlar ma'nosini sharhlash, ularni so'z birikmasi va gap ichida qo'llash kabi amaliy ishlardan foydalanishi nihoyatda zarur.

Namuna: Matbuotda (gazeta, jurnal) e'lon qilindi. Matlubot - iste'mol hamkorligi, keng iste'mol mollari; asorat – qoldiq, shamollash asorati, yomon asorat, arosat – ikkilanmoq, ikki yo'l orasida (arosatda) qolmoq; bog'cha – kichik bog'; bog'cha – maktabgacha tarbiya maskani; o'qituvchi mehnatiga tahsin aytmok

— Alisher Hirot va Mashhadda tahsil ko‘rdi. Xullas, talabaning nutqiy taraqqiyotida shakldosh, paronim so‘zlarning har biriga ma‘nodosh va uyadosh so‘zlar tanlash, ular ishtirokida so‘z birikmasi va gap tuzish, so‘z o‘yinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli so‘zlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli lug‘atlardan foydalanib, so‘z ma‘nolarini sharhlash, xilma-xil iboralar, matal va hikmatli so‘zlardan foydalanib matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarishi keyingi pedagoglik faoliyatida o‘ta foydalidir.

Kam ishlatiladigan so‘zlar ustida ishlashda berilgan so‘zlarni fanlarga oid, kasb-hunarga oid, shevaga oid, tarkibiy so‘zlar kabi guruhlarga ajratish, guruhlarni mustaqil davom ettirish, shunday so‘zlar ishtirokida matnlar yaratish, asosiy e‘tiborni kam ishlatiladigan so‘zlar ma‘nosi va ularning nutqda qo‘llanishiga qaratilishi darkor. Terminologiya shunday so‘zlar jumlasiga kiradi. Terminlarning qaysi fanga mansubligiga ko‘ra guruhlarga ajratish, so‘z va terminlar orasidagi munosabatni aniqlash (til – anatomiya termini; til – muloqot vositasi, ona tili faniga oid termin; izg‘irindek dilni tilgan (sifatdosh) o‘ylar ... kabi); uyadosh va shakldosh terminlar yordamida matn tuzish kabi topshiriqlarni bajarish – talaba lug‘at zaxirasini terminlar bilan boyitishga yordam beradi.

1. Ma‘lum bir fan sohasida tor, xususiy ma‘noga ega bo‘lib, ko‘pchilik boshqa ma‘noda keng qo‘llaydigan so‘zlar toping. Tor va keng qo‘llanish ma‘nolari doirasida gaplar tuzing. Namuna: Quyosh sistemasining to‘rtinchi sayyorasi – Yer.

Osmon uzoq, yer qattiq (M.) Sen yerni boqsang – yer seni boqadi. Dehqon rizqini yerdan topadi.

2. “Geografiya”, “Matematika”, “Tabiatshunoslik” darsliklarining ma‘lum bir betini sinchiklab o‘qing. Ularda xususiy, tor ma‘noda qo‘llanilgan va keng qo‘llanishda boshqa ma‘nolarga ega bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing. Ularning ma‘nosini tushuntiring. Har bir fan uning o‘zigagina xos bo‘lgan, muayyan terminlar sistemasiga ega. Shunday ekan, ularni bilish, tushunish, keng va tor ma‘nolarini farqlay olish, to‘g‘ri ishlatish bilan birga fan, kasb-kor uchun xos bo‘lgan terminlar sirasini o‘zlashtirishga erishish mashg‘ulotlarning asosiy

vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Terminlarni o'tganishda talabalarga tanish va yaqin bo'lgan kasb-hunarga oid so'zlar lug'atini tuzish, ularni izohlash va shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish matnlar yaratishga oid topshiriqlarni bajarish samarali natija beradi.

Boshqa tillardan kirib, o'zbek tiliga o'zlashib qolgan so'zlar – olinma so'zlar hisoblanadi. Ulami og'zaki va yozma nutqda bimalol ishlatish uchun ular anglatgan ma'no talabalar ongiga singdirilishi zarur. Ayniqsa, ilmiy terminlar borasida olinma so'zlar muhim mavqega ega. Aniq fanlarga xos "kvadrat", "kub", tilshunoslikdagi "morfologiya", "sintaksis", "leksikologiya", kundalik turmushda ishlatiladigan EHM, kompyuter, disket, kasseta kabi so'z va terminlarni almashtirish o'zbek xalqini jahon madaniyatidan uzishga olib kelmasligi lozim.

Tilimizda maktab, maorif, mashq, tolib (talaba) kabi arabcha; barg, daraxt, shirin kabi forsha-tojikcha; lag'mon, shiypon kabi xitoycha so'zlar mavjud; rus tili va u orqali boshqa xorij tillaridan kirgan stol, stul, ruchka, buxgalteriya, soldat (nemischa), palto, triko (fransuzcha), klub, futbol, biznes, kompyuter (inglizcha), tomat, limon (ispancha) kabi so'z va terminlar ham o'zbek tilida keng iste'mol qilinadigan va o'zlashgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Bunday so'zlarning ma'nosini sharhlash, imlosi va ma'nosi ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va turli matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Turli sohalar bo'yicha olinma so'zlarning ro'yxatini olish, ularning lug'aviy ma'nolari ustida ishlash, olinma so'zlardan so'z birikmalari va gaplar tuzish kabi amaliy ishlar izchillik bilan, o'zaro uyg'unlikda olib borilsagina, bunday so'zlar talabalar so'z boyligini oshirish, ulaming nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish, matn yaratish mahoratining oshishiga xizmat qiladi.

Nutqimizda kvadrat, kub, grammatika, leksika, stol, stul, shkaf, palto, kostyum, tufli, botinka, traktor, kombayn, rektor, universitet, professor, kompyuter, multimedia, kodoskop kabi ko'pgina so'zlar borki, ularni boshqa so'zlar bilan almashtirishga hech qanday ehtiyoj ham, zarurat ham yo'q.

Talaba lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil qiladi. Ma'nosi va qo'llanishi jihatdan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no

fodalaydigan soʻzlar qoʻshilmasi iboralardir. U nutqimizni boyitadigan, oʻzallashtiradigan va taʼsirchanligini oshiradigan vositadir. Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasida berilgan soʻzlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular maʼnosini sharhlash maʼno darajalarining oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1 Tadbirkor oʻz ishini biladi.

1 Tadbirkor ishning koʻzini biladi.

2 Onamning jahli chiqdi.

2 Onamning sabr kosasi toʻdi.

3 U ishni yaxshi bajardi.

3 U ishni xamirdan qil sugʻurganday bajardi.

4 Masalani yechishda

5 Masalani yechishda

Shahlo juda qiynaldi. Shahloning ona suti ogʻziga keldi. Bundan tashqari, oʻquvchilaiga ona tili mashgʻulotlarida iboralar lugʻatini tuzdirish, iboralarga zid maʼnoli, muqobil ibora yoki soʻz birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni oʻrgatish ham soʻz boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida iboralar ustida ishlash yuzasidan bajariladigan mashqlardan namunalar beramiz. Iboralar mazmunini sharhlang, ulami avval maʼnodoshlari, soʻngra oddiy soʻzlar bilan almashtiring.

1 Gapi bir joydan chiqdi, ogʻiz-burun oʻpishdi – kelishdi.

2 Dimogʻi chogʻ boʻldi, vaqti chogʻ, chehrasi ochildi, ogʻzi qulogʻiga yetdi, boshi osmonga yetdi... – xursand boʻldi.

- yeng shimarib, ishga tushdi, boshi bilan shoʻngʻidi, gʻayrat qildi – astoydil ishga tushdi.
- oq-qorani tanidi, doʻst-dushmanni ajratdi – hayot tajribasiga egaboʻldi.
- terisiga sigʻmadi, ogʻzining tanobi qochdi, boshi koʻkka yetdi – suyundi.
- tili qichidi – gapirgisi keldi.

2. Iboralarni zid maʼnodagi muqobillari bilan almashtiring.

- dimogʻi chogʻ – kayfiyati buzuq.

- yeng shimarib – qo‘l uchida, naridan-beri.
- terisiga sig‘madi – tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi.
- tili qichidi – tovushi o‘chdi, dami chiqmadi...

Shu bilan birga, talabalar tomonidan to‘plangan iboralami guruh ishtirokida eshitish, to‘g‘rilash, tahlil qilish, to‘ldirish mashqlari o‘tkazilishi ularda til sezgirligi, so‘z tanlash mahorati, matn yaratish madaniyatining shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Matn ustida ishlash uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Gap juftlarida ajratilgan qismlar orasida qanday ma‘no munosabatlari borligini aniqlang.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlarni iboralar bilan almashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Yuvosh, qo‘rqdi, chaqqon, toza, ko‘p gapirdi, gapirildi, quvondi.

Namuna: yuvosh – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, qo‘rqdi – kapalagi uchdi kabi. Iboralar o‘rtasida o‘zaro shakldoshlik va ma‘nodoshlik ham bo‘lishi mumkin: boshga ko‘tarmoq (e‘zozlamoq), boshga ko‘tarmoq (shovqin-suron solmoq) – shakldosh iboralar; tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi – ma‘nodosh iboralar. O‘quvchilar badiiy asarni o‘qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noli iboralar ma‘nosi sharhlangan izohli lug‘at daftari tutsalar, mazkur so‘zlar ishtirok etgan gaplar tuzsalar, so‘z boyligini oshirish va nutqiy mahoratni shakllantirishda yaxshi natijalami qo‘lga kiritadilar.

Tasviriy ifodalar (po‘lat ot chavandozi, zangori kema kapitani (mexanik-haydovchi o‘rnida); zangori ekran, oynai jahon (televizor); qanotli do‘stlar (qushlar); oq oltin (paxta)) dan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish nutq go‘zalligini ta‘minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi. Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqah berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma‘nolarini sharhlash, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish foydalidir.

Leksikologiyani o‘rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so‘zning botiniy, lug‘aviy ma‘nosini tavsiflash shu jarayonda

to'g'ri va o'rinli so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi. Leksik tahlildan namunalar:

1-topshiriq. Viloyat so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

viloyat — yirik ma'muriy - territorial bo'linma, muzofot:

Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati...

2. Ma'nodoshlari: hudud, vodi, depara, manzil, muzofot...

3. Bugun respublikamizning Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida havo issiq bo'ladi. O'quvchi leksik tahlil jarayonida so'zning lug'aviy ma'nolari haqida o'zi mustaqil fikr yuritadi. Shu so'zga ma'nodoshlarni o'zi izlaydi, iloji bo'lsa, boshqa tildagi tajimasini topadi. Shu so'z ishtirok etgan gaplar quradi va matn yaratadi.

Eshqobil Shukur ijodi misolida leksika o'qitilsa, o'quvchilarning nutqi ravon, aniq, ta'sirchan bo'lib, til birliklari haqida (tovush, so'z, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik qurilmalarda), so'zlarning ma'no va shakl unosabatlari asosidagi bog'lanishlarini taqqoslash asosida milliy tafakkur ham shakllanadi. O'quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish, barcha ona tili o'qituvchilarining diqqat markazida bo'lishi lozim. Shuning uchun o'zbek tili mashg'ulotlarining bosh maqsadi o'quvchi so'z boyligini oshirish, uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, til bo'limlarini uslubiyat bilan bog'liq holda o'rganish hisoblanadi.

Bob bo'yicha xulosa

1. Shoir E.Shukur o'z ijodida so'zlardan foydalanishda, tahlil qilishda shunday tanlov qilganki, bir so'z yoki iboraga berilgan izoh orqali boshqa yana shu tushunchaga aloqador boshqa so'zlarning ham etimologiyasi haqida muayyan tasavvurlar paydo bo'ladi.
2. E.Shukur she'riyida nafaqat, so'zlar, tushunchalar, ma'nolar, balki qadimiy ohanglar ham jaranglab turadi, bu – shoirning tildan naqadar ustalik bilan foydlanganini ko'rsatadi. Bu tajribani ham o'rganish lozim, shoirning poetik individualligi alohida monografik ishlar orqali ochib berilishi kerak,

nafaqat leksikasi, fonetikasi, sintaksisi, morfologiyasi ham tadqiq qilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

3. Leksika o'qitishda uning she'rlari, umumta'lim maktablari, oliy ta'limda leksik tahlil qilinsa, o'qitish metodikasi ishlab chiqilsa, o'quvchilarning o'z ona tillariga muhabbati yanada oshgan bo'lardi.

XULOSA

Eshqobil Shukurning o'zbek tiliga xos bo'lgan nodir so'zlar tahliliga bag'ishlangan turkum mulohazalari, milliy mentalitetimizni ifodalaydigan, konsept darajasidagi so'zlar etimologiyasiga doir qarashlari, she'rlarida qo'llangan so'zlarning ifodalari o'rganilib quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Shoir Eshqobil Shukurning hayoti va ijodiy faoliyati tahliliy o'rganilganda uning she'riyatidagi o'ziga xoslikning sabablaridan biri ota-onasi, momolardan qadimiy so'zlarni o'rganganligi, xalq dostonlarini ko'p o'qiganligi, baxshilarning ohanglarini takror-takror tinglagani bilan bog'liq.
2. O'zbek tili o'zining boy ichki yasaliş tizimiga egadir. Tilimizning boyishi ichki ma'no taraqqiyoti bilan ham bog'liq. Jumladan, ijodkorlar tomonidan til birliklari yangi-yangi ma'nolarda qo'llanilmoqda. Neologizmlar va okkozionalizmlar masalasi ham aynan shoir yoki yozuvchilarning tilimizga qo'shayotgan yangidan-yangi ifodalari bilan bog'liq.
3. Eshqobil Shukur nafaqat o'z sherlari bilan, balki til taraqqiyoti, so'z tarixi, etimologiyasi bilan bog'liq muammolarga, nutqimizdagi chalkash qo'llanilayotga so'zlarga o'z munosabatini ham bildirgan. Bu yondashuvlarni asosli deb hisoblash mumkin, chunki ko'pchilik izohlar shunchaki aytilmagan, ishonchli manbalardan yetarli asoslar ham keltirilgan.
4. Shoir so'zlardan foydalanishda, tahlil qilishda shunday tanlov qilganki, bir so'z yoki iboraga berilgan izoh orqali boshqa yana shu tushunchaga

aloqador boshqa soʻzlarning ham etimologiyasi haqida muayyan tasavvurlar paydo boʻladi.

5. Eshqobil Shukur sheʼriyalarida nafaqat, soʻzlar, tushunchalar, maʼnolar, balki qadimiy ohanglar ham jaranglab turadi, bu – shoirning tildan naqadar ustalik bilan foydlanganini koʻrsatadi. Bu tajribani ham oʻrganish lozim, shoirning poetik individualligi alohida monografik ishlar orqali ochib berilishi kerak, nafaqat leksikasi, fonetikasi, sintaksisi, morfologiyasi ham oʻrganilishi kerak.
6. Leksika oʻqitishni aynan Eshqobil Shukurga bogʻlangani ham bejiz emas, har bir shoir ijodining stilistikasi, sintaksisi bor, ammo biz oʻrgangan mazkur xassos shoir ijodining leksikasi va fonetikasi alohida ilmiy tadqiqot sifatida oʻrganilsa, oʻzbek tili lugʻat tarkibi yangi maʼnolar bilan boyiydi. Uning sheʼrlari, umumtaʼlim maktablari, oliy taʼlimda leksik tahlil qilinsa, oʻqitish metodikasi ishlans, oʻquvchilar oʻz ona tillari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega boʻladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

1. Ahmedov A. Badiiy asar tilini o‘rganish haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1989. – № 9. – В.

2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Т.: Fan, 1981. – 43б. 3. Abdusaidov A. Matbuot tilida okkazional frazeologizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2003. – №4. – В.84-86.

4. 3.A‘zamov A., Haqqulov I. Mas‘ul so‘z. Badiiy so‘z shukuhi. – Т.: Fan, 1987. – 63 б.

5. Yoriyev B. Shayxzoda poeziyasida okkazionalizmlar // O‘zbek tili

stilistikasidan kuzatishlar. –Samanqand, 1981. –B. 77-80.

6. Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. –T.: Fan, 1983. – 151 b.

7. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. –T.: Navro‘z I qism, 1997. –92 b.; II qism, 1998. –134 b.; III qism, 2000. –138 b.

8. Berdialiev A. So‘zdagi sehr. – T.: O‘zbekiston, 1996. –32 b.

9. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy uslub. T.: Fan, 1988. –208 b.

10. Эшқобил Шукур **Ҳамал айвони шеърлар ва достон** “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти Тошкент — 2002

11. Jumanazarov Yu. Til va uslub. –T.: Fan, 1973. –135 b.

12. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.: O‘qituvchi, 1993. –32 b.

13. Madrahimov I. O‘zbek tilida so‘zning serqirraligi va tasniflash asoslari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. –T., 1994. – 141 b.

14. Mirtojiyev M. Okkazional ma’no // O‘zbek tilshunosligi masalalari. ToshDU Ilmiy ishlar to‘p. – T., 1973. CHiq. 443. –B. 90-98.

15. Samadov Q. Oybekning til mahorati. –T.: Ped. Instituti, 1981. –104 b.

16. Toshaliyev I., Jo‘raboeva M. Hozirgi o‘zbek tilida okkazional so‘z yasalihi // O‘zbek tili stilistikasining aktual masalalari. – T.: O‘qituvchi, 1983. – B. 29-49.

17. Toshaliyeva S.I. O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalihi: Filol. Fanlari nomzodi ... dis. – T., 1998. – 170 b.

18. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zbekiston, 1992. –399 b.

19. Umurqulov B. She’riyatda okkazional so‘zlar // O‘zbek tilining leksikgrammatikxususiyatlari.. – T.: Fan, 1988. –B.89-93

20. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda soʻz. –T.: Fan, 1993. –132 b.
21. Choriyev B. Gʻ. Gʻulom sheʻriyati tili. –T.: Fan, 1990. –112 b.
22. Shodieva D. Muhammad Yusuf sheʻrlaridagi affiksatsiya usuli bilan hosil qilingan okkazionalizmlar // Til va adabiyot taʼlimi. – T., – 2004. –№5.– B. 48-54.
23. Oʻzbek tili leksikologiyasi. T.: Fan, 1981. –313 b.
24. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I- II tom. –M.: Rus tili, T. I. 1981.–631 b.
T. 2. 1981.– 715 b.
25. Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. – T.: Oʻqituvchi, 1985. – B.63
26. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi.— T.: Fan, 1990; Oʻsha muallif. Badiiy adabiyotda soʻz.—T.: Fan,1993.
27. Umurqulov B. Oʻzbek badiiy prozasi tilining lugʻaviy xususiyatlari Filol. fanlari d-ri: avtoreferati. –T., 1994.
28. http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr
29. <http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008>.
30. <http://www.sfs.uni-tuebingen.de/~lothar/lexbuch/Seminar01/skripte/onomasio.html>
31. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>; www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf
32. http://lamp.semiotics.ru_gv_ch2/htm
33. http://www.i-ru/biblio/archive/ter_jasik/01.aspx (may, 2004)